

O'qituvchi nimani o'ylaydi?

Yaqinda qozog'istonlik hamkasbim bilan suhbatlashib qoldim. Aytishicha, ularda har bir xodimga ta'til pulidan tashqari, davlat tomonidan davolanishi uchun alohida mablag' ajratilarkan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yaqin kelajakda bizda ham shunday o'zgarish yuz beradi, deb umid qil-dim.

4-bet

Huquqshunoslik tarixini o'rganish ehtiyoji

Qo'shni Qozog'istonda akademik S.Zimanov boshchiligidagi "O'tmish qozoq huquq dunyosi" nomli 10 jildlik nashrning huquqshunos olimlar tomonidan tayyorlangani biz uchun bir turtki bo'lib xizmat qilmaydimi?!

10-bet

Muallimning sukuti



14-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 24-iyul, chorshanba № 57 (9226)

Xalq ziyolilari gazetasi



Magistratura bo'yicha cheklovlar olib tashlandi

7-bet



Mushtariy muhokamasi

“Ma'rifat”ni o'qimay qo'yish o'qituvchi uchun katta yo'qotish”

Aziza BOYMURODOVA:

— Bu yil ta'lim nashrlarining adadi tushib ketdi. Jumladan, “Ma'rifat” gazetasining adadi hozir 12000. Mamlakatimizda birgina xalq ta'limi tizimida 450 mingdan ortiq pedagog faoliyat yuritayotgan bir vaqtda yetakchi ta'limiy nashrning adadi bu ahvolga tushib qolishi achinarli. Nahotki, “Ma'rifat”ga bir maktabdan hech bo'lmaganda o'n dona obuna bo'lib o'qishga imkon topolmaymiz? Nega hamma narsani yuqoridan buyruq bo'lsa-gina bajaramiz? Qachonki, gazeta o'qilsin, obuna bo'linsin, deyilmaguncha bu ishni qilmaymiz.

NODIRA:

— “Ma'rifat”ni o'qimay qo'yish o'qituvchi uchun katta yo'qotish. U o'qituvchining adabiyot, san'at, siyosat, pedagogika haqidagi bilimlarini oshiradi. Menimcha, o'zini ziyoli deb bilganlar bu yo'qotishga rozi bo'lmaydi. Gazetani qo'llab-quvvatlash, asrab qolishga harakat qilaylik!

Mahmuda VALIYEVA:

— Qaniydi har bir viloyatdan kamida 10 nafar tashviqotchi chiqsa-yu, gazeta uchun qayg'ur-sa. Kim tanlovda qatnashayotgan bo'lsa, darrov maqolasini gaze-

taga beradi. Tadbir o'tkazgan bo'lsa, xabari gazetada chop etilishini xohlaydi. “Ma'rifat” ijodkorlarining bag'ri keng, ular gazeta o'qiydimi, obuna bo'lg-anmi, deb surishtirib o'tirmaydi. Imkon qadar yordam beradi. Keyin yana o'sha o'qituvchilar gazeta so'rab tahririyatga keladi. Uyat emasmi axir!

Feruza UMARALIYEVNA:

— “Ma'rifat”ga har bir o'qituvchi o'zi alohida obuna bo'lgani ma'qul. Chunki maktabga yetkazilishi tufayli ta'tilda sog'inib qolyapmiz.

3-bet

Fikr, mulohaza, taklif

O'quv markazlari maqsadi: ko'proq abituriyent kelsin...



Ba'zan o'ylab qoladi kishi. Turli sohalar-dagi yangiliklar, jahon tajribasida bo'lsa-da, bizga ma'quldek ko'ringani uchun uni to'g'ri deb qabul qilib xatoga yo'l qo'ymayapmizmi? Jamiyat rivoji, o'zlikni saqlash, tiynatimizning o'zgarib ketishiga sabab bo'luvchi ayrim o'zgarishlarni kuzatib, ularni o'zimizga qabul qilishda to'g'ri, maqbul yo'lga yo'naltirib, moslashtirib borish, turli sohada-gi islohotlar uchun o'zimizga xos va dunyoning boshqa xalqlari ko'chirsa bo'ladigan yangiliklarni izlab topib, joriy etishimiz mumkin aslida. O'tgan salkam o'ttiz yilda xususiyashtirishga bo'lgan e'tibor va harakatlar natijasida ko'plab ish o'rinlari yaratilgani va ularning jamiyat rivojiga xizmat qilgani to'g'ri. Jumladan, o'quv markazlaridan davlatga tushadigan tushumlar ham, balki kattadir.

5-bet

Bizni internetda ham kuzating!

www.marifat.uz

/marifat.uz

@marifatziyo

2 Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular bilan ishlashda samarali, ta'sirchan va hayotiy targ'ibot usullaridan keng foydalanish muhim o'rin tutadi.

Farg'onalik 5 nafar yosh Koreya universitetiga imtiyozli qabul qilinadi

Farg'ona viloyati hokimi Shuhrat G'aniyev bir guruh faol, iqtidorli yoshlarni faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirladi.



Tadbirida mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati asosida navqiron avlodning zamonaviy bilim olishi, sport, san'at, biznes va boshqa yo'nalishlarda iste'dodini namoyon etishi, jamiyatda munosib o'rin topishi yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar va ularning samaralari haqida so'z yuritildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim

tashabbus ijrosini ta'minlashda o'zining g'oyalari va intilishlari bilan ishtirok etgan, yoshlar o'rtasida namunalı xulqi, yutuqlari bilan o'rnatilgan bir guruh yoshlar faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Ularga 16 ta kompyuter, 10 ta zamonaviy planshet tantanali topshirildi.

Taqdirlangan yoshlar nomidan Uchko'prik tumani yoshlar

ittifoqi kengashi sardori Asilbek Obidov, Toshloq tumani yoshlar ittifoqi kengashi sardori Husnora Ibrohimova, FarDU talabasi, yoshlar faoli Zulxumor Mahmudjonovalar so'zga chiqib, ko'rsatilgan e'tibor va g'amxo'rlik uchun o'z minnatdorligini bildirdi.

Viloyat hokimiga yoshlarga oid davlat siyosatining ijrosi samaradorligini oshirishga qo'shgan hissasi uchun O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashining "Tashakkurmoma" si topshirildi.

Tadbir so'ngida viloyat hokimi 5 ta muhim tashabbus doirasida yangi g'oyalar, tashabbuslar bo'yicha Yoshlar murojaatnomasini qabul qilib, shu bo'yicha o'z tashabbuskorligi, innovatsion g'oyalari, amaldagi harakatlari bilan faol qatnashgan 5 nafar yoshning Farg'ona shahrida yangi ochilayotgan Janubiy Koreyaning Xalqaro Seojeong universiteti filialiga o'qishga imtiyozli qabul qilinishini e'lon qildi.

M.SULAYMONOV,
O'ZA muxbiri

Bebaho ma'naviy boylik

Vatanimiz mustaqilligining 28 yilligiga bag'ishlab Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati tashabbusi bilan "Mening oilam — ma'naviy boyligim" deb nomlangan respublika festivali boshlandi.

Loyihaning dastlabki tadbirlari Sirdaryo viloyatining tuman va shaharlarida start oldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular bilan ishlashda samarali, ta'sirchan va hayotiy targ'ibot usullaridan keng foydalanish muhim o'rin tutadi. Mazkur hujjat ijrosi yuzasidan o'tkazilayotgan "Mening oilam — ma'naviy boyligim" deb nomlangan festival doirasida oilaviy ajrashishlarning oldini olish, oiladagi ma'naviy sog'lom muhitni mustahkamlash, kelajak avlod ongiga milliy qadriyat va an'analirimizni chuqur singdirish bo'yicha targ'ibot ishlari amalga oshirilmoqda.

Tadbirida "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati raisi Baxtiyor Husanov mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar hamda festival tadbirlari, oiladagi ma'naviy-ma'rifiy muhit to'g'risida o'z mulohazalarini bildirdi. Olimlar, ekspertlar yurtimizda oila azaldan muqaddas qo'rg'on sanalishi, farzand tarbiyasi uchun katta-yu kichik birdek mas'ul ekanı haqida gapirdi.

Festival doirasida ilmiy-amaliy seminar o'tkazildi. Ma'naviy ishlar samaradorligini oshirish, aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga qaratilgan "Kitobxonlik — yoshlar ma'naviyatining asosi", "Baxtli oila ma'naviyati" mavzularida madaniy tadbir bo'lib o'tdi.

N.USMONOVA,
O'ZA muxbiri

Xalqaro hamkorlik va izlanishlar samarasi

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi dunyodagi 15 dan ortiq yetakchi islom tadqiqot markazlari, universitetlari bilan hamkorlikka oid memorandumlar imzolagan.

Prezidentimizning 2017-yil 27-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, AQSh, Saudiya Arabistoni, Misr, Turkiya, Malayziya, Pokiston, Hindistondagi ilmiy markazlar bilan hamkorlik aloqalari o'rnatildi. Malayziyaning Islom ilmlari universiteti, Islom sivilizatsiyasi instituti, Islomni anglash instituti bilan buyuk allomalarimiz ilmiy merosini o'rganish va keng tadqiq etish yo'nalishida kelishuvlarga erishdi.

Saudiya Arabistonining Podshoh Abdulaziz universiteti, Sunna va Nabaviy merosni o'rganish markazi bilan xorijda saqlanayotgan nodir qo'lyozmalarning nusxalarini olish bo'yicha bitim imzoladi.

Prezidentimiz joriy yil 11-yanvar kuni Samarqand viloyatiga tashrifi chog'ida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi kutubxonasidagi nodir asarlarning mazmun-mohiyatini to'liq o'rganish hamda xalqimizga yetkazish maqsadida ularni saralash va bos-

qichma-bosqich tarjima qilish vazifasini aytgan edi.

Mazkur topshiriqqa asosan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Imom Dorimiy, Abu Lays Samarqandiy, Abul Barakat Nasafiy kabi buyuk allomalarimizning 21 ta asarini tarjima qilish bo'yicha Respublikadagi yetakchi islomshunos va sharqshunos olimlar hamda markaz ilmiy xodimlaridan iborat tarjimonlar guruhi tuzildi. Bugunga qadar Imom Buxoriyning "Xolqu af'ali-l-ibad", "Sulosiyotul Buxoriy", "Birrul volidayn", "At-tarix as-sag'ir" kitoblari, Abul Muntaho Mag'nisoviyning "Sharhul-Fiqlil Akbar", Alouddin Kosoniyning "E'tiqod al-Kosoniy" asarlari, shuningdek, "Taso'id hiddat zohirat al-Islamafobiya fiy Avruba" (Yevropada islomofobiyaning jadallashuvi) va "Istirotiyyatu da'ish fiy istiqot va tajnid ash-shabab" (ISHIDning yoshlarni o'ziga jalb qilishga doir strategiyasi) kitoblari tarjima qilinib, hozirda tahrir ishlari yakuniga yetkazilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining joriy yil 25-martda Imom Buxoriy ilmiy-merosini tadqiq etish va keng jamoatchilikka yetkazish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilish bayonida belgilan-

gan vazifalar ijrosiga qaratilgan "Yo'l xaritasi" tasdiqlangan, — deydi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori o'rinbosari Shukurullo Umarov. — Mazkur "Yo'l xaritasi"da Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimlari tomonidan o'tgan 2018-yilda buyuk allomalarimiz ilmiy merosiga bag'ishlab tayyorlangan 16 nomdagi kitob va risolalar asosida "Haqiqat niqobidagi yolg'on", "Odoblar durdonasi", "ISHIDning botil da'volari va ularga raddiyalar", "Haqiqat niqobidagi yolg'on", "Odoblar durdonasi", "Talabalar istagi" kitoblarini nashr etish vazifasi belgilangan edi. Bugungi kunda mazkur kitob va risolalar to'liq tahrirdan chiqarilib, ularning o'zbek, arab, ingliz va rus tilidagi annotatsiyalari tayyorlanib, yaqin kunlarda keng kitobxonlar ommasiga taqdim etiladi.

Bundan tashqari, markaz ilmiy xodimlari tomonidan Imom Buxoriy asarlari asosida turli yoshdagi kitobxonlarga mo'ljallangan bir qator ommabop risolalar tayyorlanib, nashr etish arafasida turibdi. "Bolalar odobi", "Ota-onaning farzand tarbiyasidagi burchi", "Farzandning ota-ona oldidagi burchi", "Ota-onaning roziligi va ularga yaxshilik qilish" risolalari shular jumlasidan.

Maktab o'quvchilariga mo'ljallangan "Kasb o'rganishning fazilati", "Imom Buxoriyning yoshligi", "Ilm olish odobi", "Odoblar durdonasi", "Odobing

— oftobing" kabi risolalar ham muhad-disning asarlari asosida tayyorlandi.

Aholi keng qatlamiga mo'ljallangan "O'zbekiston — buyuk allomalar yurti" turkumidan Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Dorimiy, Mahmud Zamaxshariy kabi allomalarning ibratli hayoti va ijodi, boy ilmiy merosiga bag'ishlangan alohida ommabop risolalar tayyorlandi.

Hozirda ilmiy xodimlar tomonidan "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi ostida oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar ilmiy meroslari asosida buzg'unchi oqimlarning soxta da'volariga raddiya tarzida "Jaholat nima?", "Botil aqidalar", "Islomofobiya", "G'arb madaniyati", "Axloqsizlik — tanazzul" kabi mavzularda risolalar tayyorlash ustida ish olib borilmoqda.

Markaz tomonidan amalga oshirilayotgan bu kabi sa'y-harakatlar yurtimiz va musulmon dunyosidan yetishib chiqqan ulug' mutafakkir va allomalarining boy merosi, ularning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissasini xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongiga chuqur singdirish hamda shu orqali ularni o'zaro hurmat va diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Abdulaziz YO'LDOSHEV,
O'ZA muxbiri

Mushtariy muhokamasi

"Ma'rifat"ni o'qimay qo'yish o'qituvchi uchun katta yo'qotish"

O'qituvchilik tinimsiz izlanish, o'z ustida ishlash demakdir.

U dunyoda bo'layotgan voqea-hodisalarni muntazam kuzatib borish bilan birga, har bir masalaga nisbatan shaxsiy fikr va qarashlarga ega bo'lishni talab etadi. Shuning uchun ham pedagog mutolaa qilishi zarur. Gazetamizning "Ma'rifat mushtariylari" "telegram" guruhida mushtariylar bilan ochiq muloqot qilish, ularning nashrimiz xususidagi fikrlari bilan tanishish, gazetxonlarni qanday axborotlar qiziqtirayotganini bilib borish imkoniga ega bo'lyapmiz. Quyida pedagoglarning matbuot nashrlari haqidagi fikr-mulohazalarini e'tiboringizga havola etamiz.

Aziza BOYMURODOVA:

— Bu yil ta'lim nashrlarining adadi tushib ketdi. Jumladan, "Ma'rifat" gazetasining adadi hozir 12000. Mamlakatimizda birgina xalq ta'limi tizimida 450 mingdan ortiq pedagog faoliyat yuritayotgan bir vaqtda yetakchi ta'limiy nashrning adadi bu ahvolga tushib qolishi achinarli. Nahotki, "Ma'rifat"ga bir maktabdan hech bo'lmaganda o'n dona obuna bo'lib o'qishga imkon topolmaymiz? Nega hamma narsani yuqoridan buyruq bo'lsagina bajaramiz? Qachonki, gazeta o'qilsin, obuna bo'linsin, deyilmaguncha bu ishni qilmaymiz. O'z ustingizda ishleng, deyilmaguncha ishlamaymiz. O'qituvchisi gazeta, kitob o'qiyotganini ko'rgan o'quvchilar kitobsevar bo'lib ulg'ayadi. "Ma'rifat" gazetasini har bir muallim obdon o'qib, mulohaza yuritmas ekan, ta'limda oqsog'lik, o'qituvchilar o'rtasida bilimsizlik kuchayaveradi. Bu gazetaga hurmatim baland. Qator yillar davomida gazetada o'ttizga yaqin maqolam chop etildi. Ayrim gazeta-jurnallardan farqli o'laroq, biror marotaba pul to'lab chiqartirmaganman. Qaytanga yozga-nim uchun pul berishadi.

Farida

AXBORALIYEVA:

— "Ma'rifat" gazetasi biz muallimlarning mushkulimizni oson qilib, do'st-u qadrdonimizga aylangan. Yangi ish boshlagan yillarim hali-hanuz esimda. Har doim "Ma'rifat"ga obuna bo'lardim. O'shanda gazetani avval ustoz o'qituvchilar o'qib chiqamiz, deb olishardi. Har bir ishida gazeta hammaslagim bo'lardi, bolalar ko'ngliga yo'l topish, darsni qiziqarli tarzda tashkil etishda "Ma'rifat"dan ko'p saboq olganman. Uni muntazam o'qib borganim uchun o'qituvchilikni tez eplab ketdim. Hozirgacha bu gazetaning doimiy mushtariysiman.

Gulchehra ASHUROVA:

— Nasib etsa, kelgusi yili ta'lim nashrlarining obunasi havas qilgudek bo'ladi. Nashrlarning adadi tushib ketishiga obunaga bo'lgan noto'g'ri munosabat sabab bo'ldi. O'tgan yili obuna bo'lgani uchun ayrim mudirlar ishdan ketka-

zildi, direktorlarga hayfsan berildi, ayrim o'qituvchilarga bu qaymoqday yoqdi. Shunga qaramay, obuna bo'lgan maktablar ham bisyor. Bu yil ta'lim nashrlariga obuna soni ko'paytirilishi shart va zarur. Sababi, ularda ta'lim-tarbiya haqidagi asosli, ishonchli ma'lumotlar, qonun va qarorlar, farmonlar, nizomlar, metodik tavsiyalar, dars ishlanmalari va tahliliy maqolalar chop etiladi.

Ayrim gazetalarda maqola chiqartirish pullik. Mahalliy gazetalarimizdan birining o'z an'anasi bor: gazeta obuna bo'lsangiz, 1-sahifasiga suratingizni katta qilib chiqaradi. Puli to'lansa, bas. Shu gazeta bosh muhaririga ota-onalar majlisi haqidagi yozgan maqolamni olib bordim. Bosh muharrir 10 bet yozib, ko'p ekan-da, deb hatto nomiga bo'lsa ham o'qib ko'rmasdi. Xuddi shu maqolani "Ma'rifat"ga yuborgan edim, biror harfi ham o'zgartirilmay, chop etildi.

NODIRA:

— "Ma'rifat"ni o'qimay qo'yish o'qituvchi uchun katta yo'qotish. U o'qituvchining adabiyot, san'at, siyosat, pedagogika haqidagi bilimlarini oshiradi. Menimcha, o'zini ziyoli deb bilganlar bu yo'qotishga rozi bo'lmaydi. Gazetani qo'llab-quvvatlash, asrab qolishga harakat qilaylik!

Mahmuda VALIYEVA:

— Qaniydi har bir viloyatdan kamida 10 nafar tashviqotchi chiqsa-yu, gazeta uchun qayg'ursin. Kim tanlovda qatnashayotgan bo'lsa, darrov maqolasini gazetaga beradi. Tadbir o'tkazgan bo'lsa, xabari gazetada chop etilishini xohlaydi. "Ma'rifat" ijodkorlarining bag'ri keng, ular gazeta o'qiydimi, obuna bo'lganmi, deb surishtirib o'tirmaydi. Imkon qadar yordam beradi. Keyin yana o'sha o'qituvchilar gazeta so'rab tahririyatga keladi. Uyat emasmi axir! Minglab o'qituvchilarni elga tanitayotgan gazeta mushtariylari respublika bo'yicha 12000 ni tashkil etsa. Yana buning ichida oliy ta'lim ham bo'lsa?! Gazeta o'qishli, rang-barang mavzularni qamrab olgan, har bir pedagog uchun foydali, ammo buni o'qimagan odam bilmay-

di va yana ko'r-ko'rona "gazetaga ehtiyoj qolmadi", deb yuraveradi.

Mohira CHORIYEVA:

— Ba'zan imkoniyat ko'paygani sari noshukurlik ham kuchaya boradi. O'qituvchi faqat o'z sohasidagi gazetani emas, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy gazeta-jurnallarning barchasini o'qisa ham ziyon qilmaydi. Ta'lim nashri esa bizning ko'zgumiz. Uni o'qib, muntazam kuzatib borish vazifamizning bir bo'laki bo'lishi kerak. O'qituvchi umrining oxirigacha o'rganadi. Maktabimizning sobiq direktori hozirgacha gazeta o'qishni kanda qilmaydi. Doim gazeta kelishini intiqlik bilan kutadi. Bunday fidoyi rahbarlar kamdan kam uchraydi.

Hafiza RASHIDOVA:

— Sodda qilib aytadigan bo'lsak, bir kiyimlik mato puliga ta'lim nashriga bir yillik obuna bo'lish mumkin. Majburiy obuna taqiqlanganini joylarda hamma har xil tushundi. Kasbini hurmat qiladigan pedagog ta'lim nashriga obuna bo'lishi lozim. Muxbirlarning bizga nisbatan do'stona munosabatdalligi uchun rahmat. Fikrimizni tinglab, uni tegishli tashkilotlarga yetkazib, bizga kerakli ma'lumotlarni berib kelayotgani uchun ham ularni o'zimga beminnat hamkor deb bilaman.

G'ayrat QORABEKOV:

— Yaqindagina ta'limga daxldor bo'lgan tashkilot rahbari "Sizda "Ma'rifat" gazetasining taxlami bormi?" deb so'rab qoldi. Ayrim rahbar-xodimlar qachonki o'ziga tegishli masala xususida kattaroq maqola chiqqan bo'lsa, gazeta izlashga tushib qoladi. Ular ko'proq o'qib, matbuotni muntazam kuzatib borib, voqelikni tahlil qilib, qo'l ostidagilarga ibrat ko'rsatmaydimi?! Ta'lim nashrini qo'ldan qo'ymaylik! U ta'limdagi muammolarga yechim topish, sohani yuksaltirishga hissa qo'shyapti.

Zohida USMONOVA:

— Ta'limga oid ba'zi masalalarni, o'zimizni qiynayotgan muammolarni mutasaddilar hal qilib berolmagan vaqtda yoki bizni tushunishmaganida "Ma'rifat"ga yozamiz. Gazeta murojaatlarimizga shu vaqtgacha befarq qaramagan. Kerak bo'lsa, muxbirlari olis yo'l bosib, ish joyi-mizgacha kelib, surishtiruvlar o'tka-zib, muammomizni hal qilib bergan. Ayniqsa, keyingi vaqtda "Ma'rifat" o'qituvchilar murojaati, shikoyatlari, savollari bilan ko'proq shug'ullana boshladi. Deyarli har bir

sonida biror muammo o'rtaga tashlangan yoki biror masalaning yechimi topilganini o'qiyapmiz.

Mavludaxon

MUQIMOVA:

— Gazetani o'qimaguncha uning qadriini bilmaydilar. Shu bois biz boshqa hamkasblarimizga, yosh o'qituvchilarga uni muntazam targ'ib qilaversak, o'z-o'zidan ularda ham mutolaa ehtiyoj paydo bo'ladi. Masalan, men har bir yig'ilishda "Ma'rifat"dagi biror fikr, qiziqarli ma'lumotni keltirib o'taman, xuddi anonsdek. O'sha yig'ilishdan chiqib ko'pchilik kutubxonachidan gazeta so'rayotganini ko'rib, ichimda quvonib qo'yaman.

Ulug'oy

XUDOYNABAYOVA:

— "Ma'rifat"ning har sonini intiqlik bilan kutishimni jamoamiz biladi. Bu intiqligim sababi bilan qiziq-qanlar ham gazetani bir-ikki o'qishdi-yu, menga qo'shib har sonni kuta boshlashadi. Hatto maktabimizning ishchi xodimlari ham.

Zamira TEMIROVA:

— 90 yoshga kirgan momom bor. Maktabimiz kutubxonasida u kishi o'qimagan kitob, gazeta, jurnal qolmagan. Kitobxon momoming oldida uncha-muncha adabiyot o'qituvchisi ham gapini o'ylab gapiradi. Momom gazetalarni saralab o'qiydi. "Ma'rifat" gazetasiga mehrim boshqacha deydi. Gazeta ijodkorlarini duo qiladi. Xalqning, momolarning duosini olgan fidoyi jurnalistlarimizni Haq qo'llasin! Obuna mavsumida ular bilan birgamiz.

Feruza

UMARALIYEVNA:

— "Ma'rifat"ga har bir o'qituvchi o'zi alohida obuna bo'lgani ma'kul. Chunki maktabga yetkazilishi tufayli ta'tilda sog'inib qolyapmiz.

Muzaffar QOSIMOV:

— Ta'tilda bo'lishimga qaramay, har hafta maktabga boraman, kutubxonaga kirib, "Ma'rifat"ning oxirgi sonini olib, uyga qaytaman. Ta'tilda ham men uni o'qishdan, gazeta xodimlari esa ta'lim-tarbiya sohasini yoritishdan to'xtamaydi.

"Ma'rifat"ning mushtariysiga aylanganimga chorak asr bo'libdi. Shu vaqt ichida biror sonini o'tkazmay o'qiddim. 70 yoshdan oshgan qaynonam ham so'rab qo'yadilar "Ta'limda nima yangilik, gazetani olib chiqing-chi", deb. Bu bir oiladagi gap, xolos, gazetaning haqiqiy muxlislari respublika bo'yicha minglab topiladi.

Zirola MADATOVA tayyorladi.

Savollar namunasi o'zbek tilida e'lon qilinadi

21—24-iyul kunlari Prezident maktablariga saralash imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tgan 11 520 nafar nomzod asosiy qabul sinovlarida ishtirok etdi.



Cambridge Assessment International Education tashkiloti tomonidan o'tkazilgan imtihon jarayonining ochiqligini ta'minlash maqsadida nomzodlarning ota-onalari va yaqinlari uchun kuzatuv monitorlarida onlayn translyatsiya, shaffoflikni ta'minlash maqsadida imtihonlarning video-strimining tashkil etildi. Barcha xohlovchilar kirish imtihonlari jarayonini onlayn kuzatish imkoniga ega bo'ldi.

Namangan, Nukus, Xorazm va Toshkent shaharlarida qabul imtihonlari o'tkazilishi mo'ljallangan binolarda ham veb-kameralar o'rnatildi. Ular, o'z navbatida, kirish imtihonlari bilan bog'liq jarayonni ko'rsatib turdi.

22-iyul kuni 5-6-sinf, 23-iyulda 7-8-sinfga nomzod o'quvchilar asosiy bosqich imtihonlarida bilimni sinovdan o'tkazadi. Bugun 9-10-sinf o'quvchilari imtihonda qatnashmoqda. Dastlab axborotni tahlil qilish va solishtirish qobiliyatini aniqlash bo'yicha mantiq elementlari bo'lgan matematika fanidan sinov o'tkazildi. 15 daqiqalik tanaffus-

dan keyin ingliz tilidan savollarga javob berildi.

Asosiy imtihonlarni nafaqat o'quvchilar, balki ularning ota-onalari ham katta hayajon bilan kuzatishdi.

— O'g'lim Nurmuhammadbek Tog'aymurodov Olmazor tumanidagi 146-maktabning 8-sinfida o'qiydi, — deydi Faxriddin Boymurodov. — Quyi sinfdanoq matematikaga qiziqqani uchun saralash imtihonlarida qiynalmadi. Qolaversa, darsdan tashqari paytda matematika va ingliz tilidan qo'shimcha mashg'ulotga qatnagani uchun asosiy bosqich imtihonlaridan o'tishiga ham umidimiz katta.

— Guvoh bo'lganingizdek, imtihon jiddiy nazorat ostida o'tkazildi. Qoidaga ko'ra, 15 daqiqadan ortiq kechikkan o'quvchi sinovlarga qo'yilmadi. O'quvchilarga, ularning ota-onasiga zarur sharoit yaratib berildi, — deydi Cambridge Assessment International Education tashkiloti vakili Gvindid Xardkastel.

— Shu o'rinda Prezident maktablari imtihon jarayoni va qabul tartibi



bo'yicha eng ko'p berilayotgan savollarga ham to'xtalib o'tsam. Jumladan, aksariyat ota-onalar "Agar Prezident maktabiga qabul qilingan o'quvchi o'qishni davom ettirishni istamasa, uning o'rni qanday to'ldiriladi?" degan savolni berishmoqda. Mabodo shunday holat yuz bersa, uning o'rni ro'yxatda undan keyingi o'rinni egallagan, ammo o'qishga kirolmagan nomzod taklif etiladi. Bu faqat — o'quv yilining birinchi choragida amal qiladi. Undan keyingi choraklarda shunday holat sodir bo'lsa, o'rin bo'sh qoladi.

Shuningdek, Prezident maktablariga tayyorgarlik jarayonining dastlabki kunlari asosiy bosqich imtihon savollarining ingliz tilidagi namunalari e'lon qilindi. Nomzodlarning aksariyati imtihonni o'zbek tilida topshirishini hisobga olsak, bu ularga biroz noqulaylik tug'diradi. Shu bois keyingi yili bu jihatni ham e'tiborga olamiz. Imtihon savollari namunasi o'zbek tilida ham e'lon qilamiz.

Asosiy imtihon qoidalariga ko'ra, nomzodlarga bir qancha tavsiyalar berilgan. Jumladan, imtihonga kechikmay kelish, auditoriyaga telefon olib kirmaslik, shpargalkadan foydalanmaslik va hokazo. Xalq ta'limi vazirligi axborot xizmati rahbari Anvar Umarovning aytishicha, Prezident maktablari asosiy imtihonida bunday qoidabuzarlik holati aniqlanmagan.

Eslatib o'tamiz, asosiy imtihon natijasiga ko'ra, har bir sinfga 24 nafar, har bir maktabning 5—10-sinfga esa 144 nafardan o'quvchi qabul qilinadi.

Xayrullo ABDURAHMONOV
tayyorladi.

383 kollej binosi maktablariga beriladi

Xalq ta'limi vazirligi axborot xizmatining ma'lum qilishicha, Prezidentimiz tomonidan 2019-yil 15-iyulda uzluksiz professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan majlisda berilgan topshiriqqa ko'ra, 1469 kasb-hunar kollejining 383 binosi maktablar ixtiyoriga beriladi.

Natijada 2019-2020-o'quv yilida maktablar uchun qo'shimcha 224 mingdan ortiq o'quvchi o'rni yaratiladi.

Kollejlarni maktabga aylantirishni samarali tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining topshirig'i bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimi boshchiligidagi respublikaning har bir hududida ishchi guruhi tuzilgan.

Ishchi guruhiga:

kasb-hunar kollejlarning bino va inshootlarini tegishli

hududi, mebel va o'quv-laboratoriya jihozlari, sport inventarlari bilan birgalikda xalq ta'limi tizimi tasarrufiga o'tkazish bo'yicha belgilangan tartibda ishlarni amalga oshirish;

ta'lim tizimidan boshqa sohalariga berilgan kasb-hunar kollejlarning mebel, o'quv-laboratoriya jihozlari va asbob-uskunalarini inventarizatsiya qilish va yaroqli deb topilganlarini umumta'lim maktablari balansiga o'tkazish;

2019-yil 10-avgustga qadar xalq ta'limi tizimiga o'tkazilgan kasb-hunar kollejlari binolaridan samarali foydalanish, navbatchilik koeffitsiyenti 2 va undan yuqori bo'lgan maktablarga qo'shimcha bino sifatida berish hamda ehtiyoj mavjud bo'lgan hududlarda yangi maktablar sifatida qayta tashkil etish choralari ko'rish;

xalq ta'limi tizimi tasarrufiga o'tkazilgan ta'lim muassasalarini yangi o'quv yiliga tayyorlash vazifalari yuklangan.

Vazifani o'z vaqtida va sifatli bajarish maqsadida Xalq ta'limi vazirligida shtab va hududiy ishchi guruhlari ham tuzilgan.

O'qituvchi

nimani

o'ylaydi?



"Telegram" ijtimoiy tarmog'idagi o'qituvchilarga oid guruh va kanallardan tayyor konspekt va rejalarning bir yilligini ko'chirib olib, foydalanayotgan ayrim o'qituvchilarga hayron qolaman. Nahotki 1 yoki 2 varaq konspektni o'zi yozolmasa?! Axir, darsga kirayotgan har bir o'qituvchining o'ziga xos metodi bo'lishi kerak-ku! Shuni qog'ozga tushirish qiyinmi? Avvallari vaqtimiz faqat qog'oz to'ldirish bilan o'tardi. Endi 3 tagina hujjat yuritaymiz. Shulardan biri — konspekt. Shuni ham sidqildan bajarishga erinadiganlar darsga ham bepisand munosabatda bo'ladi.

Dildora ROZIQOVA



Agar guruch kurmaksiz bo'lganida, o'qituvchilarning hammasi kasbini sidqildan bajarganida bugungi kunda yoshlar tomonidan sodir etilayotgan tartibbuzarlik va huquqbuzarliklar kamayardi.

Barno NASIMOVNA



Repetitor va maktab o'qituvchisi televideniyeidagi bir ko'rsatuvda rosa tortishdi. Repetitor "Maktabni bitirib kelgan bola matematika oddiy kasrlarni qo'shishni ham bilmaydi, biz uni bir yilda oliy o'quv yurtiga kirish testlarini bemalol yechadigan qilib tayyorlaymiz", desa, maktab o'qituvchisi "bizda bir sinfda 40—50 bola o'qiydi, repetitorlik kursingizda esa bola soni kam, deb e'tiroz bildiradi. Men esa repetitorga boradigan bolada fanni o'rganishga nisbatan kuchli xohish borligi va shu natijani ayrim pedagoglar repetitor kursidagidek sharoitda ham uyg'ota olmasligini xayolimdanda o'tkazdim. Ko'pgina chekka hududlardagi filial maktablarda bir sinfda 3—10 nafar bola o'qiydi, lekin savod va bilim past. Chunki bu o'qituvchining o'zi ham nomiga dars o'tadi va bolalarni ilm olishga qiziqitirmaydi.

Shohida ARIPOVA



O'qituvchilarning "bahonakasal" niqobiga kirishiga muhit sabab bo'ladi. Agar jamoada sog'lom muhit yaratilgan bo'lsa, o'qituvchi o'z bolasiday bo'lib qolgan o'quvchilarini kasal bo'lib qolsa ham tashlab qo'ymaydi. Bir soatlik darsini ham boshqa kasbdoshlaridan qizg'anadi.

Dildor NURMUHAMMEDOVA



Yaqinda qozog'istonlik hamkasbim bilan suhbatlashib qoldim. Aytishicha, ular har bir xodimga ta'til pulidan tashqari, davlat tomonidan davolanishi uchun alohida mablag' ajratilarkan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yaqin kelajakda bizda ham shunday o'zgarish yuz beradi, deb umid qildim.

O'QITUVCHI

Fikr, mulohaza, taklif

O'quv markazlari maqsadi: ko'proq abituriyent kelsin...

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Biroq ta'limda ish o'rining yaratilishi, ulardan olinadigan soliqlar — bu nimalardir boy berish hisobiga yuzaga kelayotgani — o'ta jiddiy o'yab ko'radigan masaladir. Masalaning jiddiy va keskinligi hammamiz ta'riflagandek, tanganing ikkinchi tomonidan kelib chiqadi.

Bugun o'quv markazlarining faoliyati qanday ekan barchaga ravshan. Maqsad — abituriyentni oliy o'quv yurtiga sifatli tayyorlash va uning pulini olish, abituriyentlarning oliy o'quv yurtlariga ko'proq qabul qilinishi bilan raqobatchilar o'rtasida mavqening oshishiga erishish.

Shaxsan o'zim o'nga yaqin o'quv markazida abituriyentlarga dars berdim. Hozir ham "Guruh shakllandi. Oltita bola bor. Kelsangiz, yana ko'payadi. Mana buncha ming to'lovdan sizga 40 foizdan to'layman", degandek takliflar to'xtovsiz tushib turadi. Har gal ish so'rab borar ekanman, markaz rahbarining ta'limdagi yutuqlarim, malaka toifam, dars o'tish usullarim haqida qiziqishini istayman. Hatto test savollari berib kalit asosida meni tekshirib ko'rishini juda xohlayman. To'g'ri, ba'zan markaz rahbari menga ona tili va adabiyotdan testlar taklif qiladi. Natijalarimni ko'rib, darslarni davlat ishidan ortib, dam olish vaqtlaridan urib qolib ajratadigan bo'sh vaqtimga moslab beradi. Biroq, ayrim vaqtda, hatto loqal pedagogik ma'lumotim to'g'risidagi diplomimni so'rashmagani taajjublantiradi. Osongina ish topanam. Biroq har gal rahbarning talabi deyarli bir xil bo'ladi: abituriyent darsda mixlanib qolsin, o'qituvchiga ham yaxshi bo'lsin, markazga ham.

Talablar butkul o'zgacha, o'quv markaziga xos.

Ta'limning tarbiyadan ayro bo'lmagligi hammamizga ayon. Biroq o'quv markazlarida tarbiya masalasi hech kimning yodiga kelmaydi. Biroq o'smir yoki o'quvchi lahza sayin tarbiyalanadi. O'zidan kattalarga, atrofdagilarga taqlid qiladi. Uning kun sayin hayot to'g'risidagi, yashashdan maqsad borasidagi qarashlari shakllanib boraveradi. Markazning maqsadi tushunarli. Ko'proq abituriyent kelsin. Qolaversa, vaqt shunday tig'izki, ortiqcha biror so'zga ham o'rin yo'q. Axir maktab va o'rta maxsus ta'limni bitirgan


o'quvchi o'zining o'n yillab havoga sovurgan vaqtining javobini bergandek bir necha oyda fan bo'yicha bor bilimlarni egallashi lozim. Natija — eng muhim ko'rsatkich. Mana, biz bolalarimizning qalbini qayerda boy beryapmiz. O'quv markaziga chakana pul bilan kelib bo'lmaydi. Har bir o'quvchi uch fandan tahsil olar ekan, ba'zan o'rtacha maosh hisobidagi badalni to'laydi. Natijada ular har bir xatti-harakatini pul bilan hisoblaydigan, har bir qadami, har bir amaliga "menga nima foyda" deb qaraydigan, bozor kayfiyatidagi shaxslar bo'lib shakllanmoqda.

Ko'p markazlarda o'smir yoshidagi abituriyentga bir martalik darsda o'qituvchini tanlash imkoniyati beriladi. Kuzatishlarimga ko'ra, ayrim joylarda "iste'molchi" o'qituvchining kamchiliklarini boshqa barcha tengqurlari va markaz rahbari, boshqa o'qituvchilar oldida shartta-shartta aytadi. Shundan so'ng markaz rahbari o'qituvchining javobini beradi. "O'g'riga mol qahatmi?" degandek, o'qituvchidan ko'pi bormi? Birinchi kursdanoq talabalarining o'zi tushdan keyin kelib, hatto bir necha fandan dars berishi mumkin. Undan o'qituvchi bo'lib yetishgani to'g'risidagi davlat hujjati so'ralmaydi. O'quv markazlari uchun eng yaxshi xodim bu — yuqori ball bilan oliy o'quv yurtiga qabul qilingan talabdir. Unga ozroq to'lasa ham bo'ladi. Qolaversa, bilimi yangi. U o'tgan yilgi test topshiriqlarini yoddan biladi.

Bugungi kun o'quvchilari oliy o'quv yurtiga kirish uchun uch fan bo'yicha darsliklarda mavjud ma'lumotlarni hamda hozirgacha qo'llanilgan testlarni quruq yod olish bilan band. Buni to'laonli kitob o'qish, bilim olish deb bo'lmaydi. Ta'lim dasturlarimizda o'quvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan fanlar qat'iy belgilangan. Aslida ular hamma fanlarni ham yaxshi o'zlashtirishlari lozim. Yaxshiki, keyingi yil abituriyentlar uchun emas, beshta fandan imtihon topshiradi. Bu juda yaxshi, chuqur o'ylangan o'zgarish bo'ldi, degan fikrdaman.

O'quv markazlari faoliyati-da yo'naltirilganlik tamoyilini bor deb bo'lmaydi.

Tarbiya masalasi esa... hali aytganimizdek, aslo markaz vakolatlariga kirmaydi.



2015-yil edi. Bir gal xorijda bir necha yil yashab kelgan abituriyentning benihoya ochiq-sochiq kiyimda darsga kelganini ko'rib, o'qituvchisidan qizga nasihat qilishini so'radim. Axir yigitlar qarab-qarab qo'yyapti. Qolaversa, har ikki kunda bir yangi abituriyent qo'shilib turibdi. "Nima qilaman yomon ko'rinishi? Baribir foydasi yo'q", dedi rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi. Keyin bu qizga o'zim gapirdim. Shu darajada achchiqlandiki, yonidagi duonasiga gap qotdi: "Ey, ham-

nima qilib bo'lsa ham avvalgi darslarni yetkazdirib olib, uni ushlab qolish kerak.

Yana bir masala maktab va oliy ta'lim o'rtasidagi ko'prikn buzib yuborayotganday.

Darsliklarni mukammallashtirish masalasida ta'lim markazi ekspert o'qituvchilar guruhini to'plab, fan bo'yicha darslikdagi kamchiliklarni tugatish, uning talab darajasida bo'lishiga erishishni maqsad qiladi. Biroq aksariyat o'qituvchilarimiz darslikka faqatgina test manbayi sifatida qaraydi. Majlislarda ularning hatto

vaqti ham, xohishi ham bo'lmasin. Shunda o'quv markazlari boshqacha ko'rinish oladi. O'ziga xos tashabbuslar, loyihalar asosida ishlaydi. Faqat odamlardan moddiy mablag' undirishga urinadigan emas, kelajak avlodning kuchli intellektual salohiyatga ega bo'lishi, millat va davlatning taraqqiyoti, yosh mustaqil tadqiqotchilarni yetishtirish, dunyo ilmfani yangiliklarini olib kirish uchun harakat qiladigan obro'li muassasalarga aylanadi. O'zaro raqobatga ham ana shu mezonlar tomonidan yondashiladi. Dunyoda puldan ham mu-

O'quv markazidagi mashg'ulotlar o'qituvchilar tomonidan ma'lum izchillikda o'tilsada, rejali emas, mavsumli ish sifatida qabul qilinadi. Qish va bahor yaqinlashgani sari va davlat imtihonlariga ikki-uch oy qolganda abituriyentlar ko'payadi. Maosh ham ortadi. Shu kabi o'ta kech kelganlarga dasturni tezkor usulda o'qitish talab qilinadi. Hatto atigi bir oy qolganda kelib ko'p-ko'p vazifa olib o'qib ketmoqchi bo'lganlar ham uchraydi. Buning ustiga har darsda bir-ikki yangi abituriyentni guruhga qo'shib olish va nima qilib bo'lsa ham avvalgi darslarni yetkazdirib olib, uni ushlab qolish kerak.

ma o'zini bilsa-chi. Birov bilan bironing nima ishi bor?"

O'quv markazidagi mashg'ulotlar o'qituvchilar tomonidan ma'lum izchillikda o'tilsada, rejali emas, mavsumli ish sifatida qabul qilinadi. Qish va bahor yaqinlashgani sari va davlat imtihonlariga ikki-uch oy qolganda abituriyentlar ko'payadi. Maosh ham ortadi. Shu kabi o'ta kech kelganlarga dasturni tezkor usulda o'qitish talab qilinadi. Hatto atigi bir oy qolganda kelib ko'p-ko'p vazifa olib o'qib ketmoqchi bo'lganlar ham uchraydi. Buning ustiga har darsda bir-ikki yangi abituriyentni guruhga qo'shib olish va

"Darslikka mana bu, mana bu yangiliklar qo'shilibdi. Hadeb o'zgaraveradimi?" yoki "Mana bu o'rindagi ma'lumotlar juda ko'p. O'quvchi testda qiynaladi" degandek e'tirozlarini eshitamiz.

Bizningcha, maktab ta'limiga shu darajada yuqori urg'u berish lozimki, bu dargohda olingan bilimlar o'quvchi tomonidan mustahkamlanishi orqali oliy o'quv yurtlariga imtihon topshirish darajasida kuchli bo'lsin. Maktab milliy tarbiya o'chog'i sifatida bola qalbini tarbiyalashga urg'u beradigan maskan bo'lsin. Maktablarimizda shunday tartib joriy etilsinki, o'quvchining pala-partish o'quv markazlariga borishga

himroq narsalar bor va ko'p. Hammamiz ham astoydil intilsak, yaxshi daromad qilishimiz mumkin, lekin ma'naviyatni boy bersak, milliy tarbiyani, ajdodlarga munosiblik darajalarimizni susaytirsak, yana o'miga keltirish uchun astoydil intilganimiz taqdirda ham yuz yillar vaqt yo'qotishimiz turgan gap. Indalosini aytganda, o'ta-onaning bilim uchun ajratadigan mablag'lari nafaqat moddiy, balki bola qalbi uchun yetarlicha ma'naviy zarar ekanini ham tushunib yetaylik.

Ma'mura ZOHIĐOVA,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi yoshlar bilan ishlash bo'limi mutaxassisi, Respublika ta'lim markazi metodik kengashi a'zosi

Ta'til zavqi

Qaynoq yoz nafasi ufurib turgan shahar bag'ridan chetga chiqsangiz qanchalar yengillaysiz? Buning ta'rifi ta'rifga qiziq. Ayniqsa, shu kunlarda tog'lar qo'ynida joylashgan soya-salqin, so'lim go'shalar joningizga orom baxsh etishi turgan gap. Bulqoboshi tumani shunday so'lim va xushhavo maskanlardan.

Nafaqat kattalar, balki bolalar uchun ham xush yoqadigan shu tumanida bir necha oromgoh joylashganining sababi ham shunda. Ulardan biri viloyat elektr tarmoqlari korxonasi tasarrufidagi "Energetik" bolalar oromgohidir. 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan 250 nafar o'g'il-qiz yayrab hordiq chiqarayotgan mazkur oromgohga uchinchi mavsum uchun bolajonlar qabul qilindi. O'quvchilarning yozgi ta'tili boshlangandan buyon esa bu yerda 500 nafar o'quvchi miriqib dam oldi va salomatligini mustahkamladi.

Bolalarning quvnoq ovozi yangrayotgan oromgoh bo'ylab aylanarkan, kelajagimiz egalarining maroqli va mazmunli dam olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan mazkur maskan havasimizni keltirdi. Shinam yotoqxonalar, sport va turli o'yin maydonchalari, stadion, suzish havzasi, mo'jaz tennis korti viloyatning turli tumanlaridan kelgan bolalar bilan gavjum. Ularning ayrimlari bilan tanishdik.


— Men bo'zlikman, tumanimiz cho'lga tutashligi uchun juda issiq. Oromgoh joylashgan qishloq esa juda salqin. Havosi judayam yoqdi, — deydi 26-IDUM o'quvchisi Muxtasar Adhamjonova. — Bu yerda juda ko'plab yangi do'stlar ortirdim. Bo'sh vaqtning o'zi yo'q. Guruhimiz yetakchisi Baxtiyor Xonkeldiyev har kuni turli qiziqarli tadbir va tanlovlar uyushtiryapti. To'garaklar ishlab turibdi. Masalan, men to'qish,

raqs to'garagiga a'zoman. Oromgohga kelguncha jempir, sviter kabi qishki kiyimlar to'qishni o'rgangan edim. Endi bolalar qalpoqchasi, qo'lpoq to'qishni o'rganyapman.

— Oromgohda o'tayotgan har bir kunimiz zavq-shavqqa to'la, belgilangan jadval bo'yicha milliy o'yinlar, sport belashuvlari o'tkazilyapti. Bugun "Vatanparvar" tashkiloti tuman bo'limi tomonidan 100 metrli estafeta va to'siqlar osha yugurish bo'yicha turnir bo'ldi, — dedi Asadbek Orifjonov. — Andijon shahridagi 11-maktabning 7-sinfini a'lo baholarga tugatdim. Yangi o'quv yilida

yaxshi o'qish uchun kuch yig'yapman. Qolaversa, do'stlarim safi kengaydi. Mana, bulqoboshilik Sardor, Javlon, xo'jabodlik Ikrom bilan tanishdim. Hammamiz futbolni yaxshi ko'ramiz. Oromgohning katta stadioni bor. Murabbiy Baxtiyor aka Nishonov boshchiligidagi qo'shni "Shifokor" oromgohi terma jamoasi bilan bo'ladigan musobaqaga tayyorlanyapmiz.

Oromgoh bosh yetakchisi Dilso'z Tumanovning izohlashicha, bolalar turli mazali taomlardan iborat taomnoma asosida ovqatlanirilmoqda. Vitaminlarga boy salat va mevalar esa bolalar dasturxoniga ko'rk berish bilan birga salomatliklarini mustahkamlashda muhim omil bo'lmoqda. Oromgoh mehmonlarining sog'lig'i shifokorlar, xavfsizligi esa ichki ishlar xodimlari tomonidan ta'minlanmoqda.



— O'quvchilarning dam olishini mazmunli va maroqli tashkillashtirish eng avvalo, mavsum tayyorgarligiga bog'liq, — deydi viloyat xalq ta'limi boshqarmasi mutaxassisi Shohida Yunusova. — Xalq ta'limi vazirligining 2019-yil 27-apreldagi 144-sonli buyrug'iga binoan viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan tegishli chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, umumta'lim maktablari qoshida 45 ta yozgi sog'lomlashtirish va 14 ta stasionar oromgohda 22450 nafar o'quvchini dam oldirish rejalashtirilgan. Kunduzgi oromgohlarda 13350 nafardan ziyod o'g'il-qiz hordiq chiqardi. Shu kunlari uchinchi mavsum tadbirlari boshlangan bolalar oromgohlarida 9 mingdan ziyod o'quvchi dam olib, salomatligini mustahkamlash imkoniyatidan foydalandi.

Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi bu yil o'quvchilarning yozgi ta'til kunlari mazmunli dam olishiga jiddiy e'tibor qaratdi. Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotlari, sport maktablari va "Barkamol avlod" bolalar markazlari bilan hamkorlikda ekologiya, o'lkashunoslik, badiiy ijodiyot va texnik ijodiyot to'garaklari hamda sport seksiyalari tashkil etildi. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablari qoshida ochilgan kunduzgi bolalar oromgohlari ham o'z ishini puxta biladigan, tashabbuskor va tajribali rahbarlar, yetakchilar, guruh tarbiyachilari bilan ta'minlandi. Natijada yozgi dam olish mavsumining dastlabki yarmida 200 mingdan ziyod o'quvchi kunduzgi oromgohlarda uyushtirilgan turli madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlariga jalb etildi. Qaynoq ta'til andijonlik o'quvchilar uchun ham maroqli, ham zavqli o'tyapti.

G'anisher AKBAROV,
"Ma'rifat" muxbiri

Ota-onalar ham, bolalar ham mamnun

Yunusobod tumanida joylashgan "Barkamol avlod" respublika bolalar o'lkashunoslik va ekologiya markazida tashkil etilgan yozgi oromgohda bolajonlarning yuqori kayfiyatini ko'rib, sharoit a'lo darajada ekanini anglash qiyin emas. Barcha metodist va pedagoglar bor bilimi bilan bolalarning ta'tilini maroqli o'tkazishiga ko'maklashmoqda.

Markazimiz bugungi kunda bolalar bilan ishlash, ularni ijodiy rag'batlantirish, kasb-hunar egasi etib tarbiyalash kabi muhim vazifalarni bajarib kelmoqda. Markazning yozgi oromgohi faoliyati asosan bolalarni chiniqtirish, sport musobaqalari va o'yinlariga jalb qilish, ularning har biri bilan individual shug'ullanishdan iborat. Bolalar bilan ishlashda ular bilan alohida shug'ullanish hamda ularga yuqori kayfiyat ulashish maqsadida barcha kerakli sharoitlar yaratilgan.

Bolalar har kuni markazimiz tomon shoshib kelar ekan, bu yer ular uchun ijodxona, maktabdan tashqari ta'lim maskani, ota-onalar uchun esa farzandlarining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazadigan ishonchli joy. Bu ishonchning boisi, pedagoglar e'tiboridan chetda qolmaydigan nazorat, markaz bilan uylari orasidagi yaqin masofa, bundan tashqari, bizdagi sharoitlar va albatta yozgi oromgohimizning mutlaqo bepul ekanidadir. Markazimiz atrofida 5 ta maktab joylashgan bo'lib, bolalar maktabdan va markaz atrofida yashaydigan uylardan kelishadi.

Yozgi oromgohdan tashqari, to'garaklarda ham bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli va foydali o'tkazish imkonini mavjud. Ijodiy tomonlama yuksalgan va o'z qo'li bilan san'at asari yaratayotgan farzandini ko'rgan ota-onalar markazdan mamnun. Markazda ta'lim olish istagini bildirgan, biroq o'qitish uchun yetarlicha sharoiti bo'lmagan, kam ta'minlangan oila farzandlari to'garaklarga bepul qatnashishlari ham mumkin.

Dilafroz AKRAMOVA,
"Barkamol avlod" respublika bolalar
o'lkashunoslik va ekologiya markazi uslubchisi

O'quvchilar minnatdor

Sergeli tumanidagi 104-maktabda o'quvchi-yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishni oshirish, o'quvchi qizlarni ijtimoiy faol hayotga jalb qilishga doir beshta muhim tashabbusni amalga oshirish bo'yicha to'garaklar tashkil etilgan.

Birinchi tashabbus bo'yicha musiqa, yosh musavvirlar, estrada, raqs, drama; ikkinchi tashabbus bo'yicha futbol, stol tennis, shaxmat-shahka; uchinchi tashabbus bo'yicha informatika, robototexnika; to'rtinchi tashabbus bo'yicha kitobxonlikni keng targ'ib qilish va beshinchi tashabbus bo'yicha "Mohir qo'llar", "Munchoqli bezak" kabi to'garaklar faoliyat yuritmoqda. To'garaklarga malakali pedagoglar jalb etilgan.

"Yoz o'tmoqda soz" shiori ostida faoliyat yuritayotgan to'garaklarga 140 nafardan ziyod o'quvchi qamrab olingan. To'garak xonalari mashg'ulot o'tishi uchun zarur bo'lgan jihozlar bilan ta'minlangan. "Saxovat", "Qipchoq" mahalla fuqarolar yig'ini raislari bilan hamkorlikda ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlari ham alohida e'tiborga olinib, to'garaklarga jalb etilgan. Maktab direktori rahbarligida maktabda to'garak mashg'ulotlarini o'tkazish uchun kerakli bo'lgan shart-sharoitlar yaratilganidan mahalla ahli, ota-onalar, eng muhimi, o'quvchilar mamnun.

Bolalarning ta'tilda dam olishi bilan birga salomatligini mustahkamlash maqsadida suv havzalari ishlab turibdi.

Har o'n kunda to'garak a'zolari o'rtasida mashg'ulotlar davomida o'rgangan ko'nikmalarini namoyish etishga bag'ishlangan tadbir tashkil etiladi. Unda faol ishtirok etgan, mashg'ulotlarni yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar esdalik sovg'alari hamda faxriy yorliq bilan mukofotlanadi.

Ravshan QODIROV,
Sergeli tumanidagi
104-maktab direktori o'rinbosari

Magistratura bo'yicha cheklovlar olib tashlandi

Magistraturaga o'qishga kirish uchun hujjatlar shu yilning 30-iyuligacha qabul qilinadi. 2019-2020-o'quv yilida respublika oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga davlat buyurtmasi asosida 7705 o'rin ajratildi. 41 mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlash bu yil yangidan yo'lga qo'yilmoqda. Ahamiyatlisi, tabiiy va muhandis-texnik sohasi mutaxassisliklari qabul ko'rsatkichlari to'liq davlat granti bo'yicha belgilandi. Bu yil magistraturaga kiradigan talabalarning 53,7 foizi davlat granti, qolgan 46,3 foizi esa to'lov-shartnoma asosida o'qiydi. O'tgan yili esa umumiy kvotaning 26 foizi davlat granti, 74 foizi to'lov-shartnoma uchun ajratilgandi. Yana bir jihati, shu yildan boshlab magistratura uchun ham qo'shimcha kontrakt asosida qabulga ruxsat berildi.

Prezidentimizning 2019-yil 17-iyundagi "2019-2020-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi qarorida yangi o'quv yilidan boshlab magistraturaga qabul qilishda abituriyentlarning qabul bo'yicha belgilangan turdosh bakalavriat ta'lim yo'nalishlari negizidagi magistratura mutaxassisliklaridan tashqari boshqa magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ham tanlovda ishtirok etishiga ruxsat berilishi belgilab qo'yildi.

Amaldagi qoidaga ko'ra, magistraturaga hujjat topshirayotgan talabgor qaysi bakalavr ta'lim yo'nalishini tamomlagan bo'lsa, faqat shunga turdosh bo'lgan mutaxassislikka hujjat topshira oladi. Misol uchun, jurnalistika fakultetini tamomlagan talaba adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti mutaxassisligi bo'yicha o'qishga hujjat topshirilmadi. Endilikda bu kabi taqiqlar olib tashlandi.

Shu o'rinda bir jihatni e'tiborga olish darkor. Bu cheklov to'liq bekor bo'lmagan. Sababi, o'ziga xos shunday yo'nalishlar borki, ular bo'yicha qat'iy cheklov talab etiladi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'zining rasmiy telegram kanalida mana shunday cheklov o'rnatilgan ayrim yo'nalishlar ro'yxati e'lon qilindi.

Endilikda oliy ta'lim muassasasining barcha bakalavr ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilari ro'yxatda keltirilgan sport, musiqa, tasviriy san'at, san'atshunoslik, texnogen san'at, sog'liqni saqlash kabi 6 guruhdagi turdosh ta'lim yo'nalishlari, shuningdek, "Chaqiriqqa-cha harbiy ta'lim", "Xoreografiya (turlari bo'yicha)", "Dirijyorlik (turlari bo'yicha)", "Rejissyorlik (turlari bo'yicha)", "Aktyorlik san'ati (turlari bo'yicha)" "Veterinariya" ta'lim yo'nalishlari negizidagi mutaxassisliklardan tashqari istalgan magistratura muta-

Magistraturaga qabul bo'yicha turdosh oliy ta'lim yo'nalishlarining ro'yxati

1-GURUH

Jismoniy madaniyat, *shu jumladan, kasb ta'limi*
Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat, *shu jumladan, kasb ta'limi*
Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha), *shu jumladan, kasb ta'limi*.

2-GURUH

Musiqa ta'limi
Bastakorlik san'ati, *shu jumladan, kasb ta'limi*
Vokal san'ati (turlari bo'yicha), *shu jumladan, kasb ta'limi*.
Cholg'u ijrochiligi (turlari bo'yicha),

shu jumladan, kasb ta'limi
Xalq ijodiyoti (turlari bo'yicha), *shu jumladan, kasb ta'limi*.

Amaliy san'at (turlari bo'yicha), *shu jumladan, kasb ta'limi*.

3-GURUH

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi, *shu jumladan, kasb ta'limi*
Rangtasvir (turlari bo'yicha), *shu jumladan, kasb ta'limi*
Dizayn (turlari bo'yicha), *shu jumladan, kasb ta'limi*
Grafika (turlari bo'yicha), *shu jumladan, kasb ta'limi*
Haykaltaroshlik (turlari bo'yicha), *shu jumladan, kasb ta'limi*

San'atshunoslik (turlari bo'yicha), *shu jumladan, kasb ta'limi*
San'at menejmenti, *shu jumladan, kasb ta'limi*
Muzeysunoslik, *shu jumladan, kasb ta'limi*.

5-GURUH

Texnogen san'at (turlari bo'yicha), *shu jumladan, kasb ta'limi*
Kino-teleoperatorlik, *shu jumladan, kasb ta'limi*.

Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi tibbiyot oliy ta'lim muassasalari magistratura mutaxassisliklari va ularga muvofiq keluvchi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ro'yxati

2019-2020-o'quv yili uchun

Magistratura mutaxassisliklari		Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari	
shifri	nomi	shifri	nomi
6-guruh			
5A510101	Akusherlik va ginekologiya	5510100	Davolash ishi
5111000		Kasb ta'limi (tibbiy pedagogika ishi)	
5A510102	Endokrinologiya	5510100	Davolash ishi
5111000		Kasb ta'limi (tibbiy pedagogika ishi)	
5510200		Pediatriya ishi	
5A510103	Terapiya (yo'nalishlar bo'yicha), shu jumladan, nefrologiya, Pulmonologiya	5510100	Davolash ishi
5111000		Kasb ta'limi (tibbiy pedagogika ishi)	
5A510104	Otorinolaringologiya	5510100	Davolash ishi
5111000		Kasb ta'limi (tibbiy pedagogika ishi)	
5510200		Pediatriya ishi	
5A510105	Kardiologiya	5510100	Davolash ishi
5111000		Kasb ta'limi (tibbiy pedagogika ishi)	
5A510106	Oftalmologiya	5510100	Davolash ishi
5111000		Kasb ta'limi (tibbiy pedagogika ishi)	
5510200		Pediatriya ishi	
5A510107	Yuqumli kasalliklar (yo'nalishlar bo'yicha)	5510100	Davolash ishi
5111000		Kasb ta'limi (tibbiy pedagogika ishi)	
5510200		Pediatriya ishi	
5A510108	Dermatovenerologiya	5510100	Davolash ishi
5111000		Kasb ta'limi (tibbiy pedagogika ishi)	
5510200		Pediatriya ishi	
5A510109	Nevrologiya	5510100	Davolash ishi
5111000		Kasb ta'limi (tibbiy pedagogika ishi)	

5A510110	Umumiy onkologiya	5510100	Davolash ishi
5111000		Kasb ta'limi (tibbiy pedagogika ishi)	
5510200		Pediatriya ishi	
5A510111	Psixiatriya	5510100	Davolash ishi
5111000		Kasb ta'limi (tibbiy pedagogika ishi)	
5510200		Pediatriya ishi	
5A510112	Xirurgiya (yo'nalishlar bo'yicha)	5510100	Davolash ishi
5111000		Kasb ta'limi (tibbiy pedagogika ishi)	
5A510113	Tashxislashning instrumental va funksional usullari (barcha mutaxassisliklar bo'yicha)	5510100	Davolash ishi
5111000		Kasb ta'limi (tibbiy pedagogika ishi)	
5510200		Pediatriya ishi	
5A510113	Tashxislashning instrumental va funksional usullari (klinik laborator diagnostika, tibbiy biokimyo)	5510900	Tibbiy-biologik ish
5A510114	Neyroxirurgiya	5510100	Davolash ishi
5111000		Kasb ta'limi (tibbiy pedagogika ishi)	
5510200		Pediatriya ishi	
5A510115	Sog'liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog'lig'ini saqlash (mutaxassisliklar bo'yicha)	5510100	Davolash ishi
5111000		Kasb ta'limi (tibbiy pedagogika ishi)	
5510200		Pediatriya ishi	
5A510116	Tibbiy psixologiya	5510100	Davolash ishi
5111000		Kasb ta'limi (tibbiy pedagogika ishi)	
5510200		Pediatriya ishi	

xassisliklari bo'yicha tanlovda qatnashish huquqiga ega bo'ldi. Faqat ular davlat grantlari asosida belgilangan maqsadli qabul parametrlari mavjud magistratura mutaxassisliklari tanlovida qatnasholmaydi.
Huquqshunos-blogger X.Xudoyberdiyev o'z telegram kanalida bu boradagi nozik bir nuqtani sharhlab o'tgan. Uning yozishicha, cheklov faqat ro'yxatda keltirilgan mutaxassisliklarga "kirish" uchun belgilangan. "Chiqish" uchun esa cheklov yo'q. "Masalan, tibbiyotni tugatgan yurisprudensiyaga

topshira oladi, lekin yurisprudensiyani tugatgan tibbiyotga topshirilmaydi. Yoki san'atni tugatgan iqtisodga topshira oladi, iqtisodni tugatgan san'atga topshira olmaydi. Fikrimcha, 2019-yilgi barcha qabul jarayonlarining eng katta ijobiy yangiligi aynan mana shu bo'ldi. Bu ayni hozirgi sharoitda tasavvur qilish qiyin bo'lgan darajadagi erkinlik va imtiyoz bo'ldi, deb bemaol ayta olaman".
Abror UMARQULOV,
"Ma'rifat" muxbiri

Avvalo, “8-sinf: “Qaro koʻzum” gʻazalini oʻrganish” nomli maqolam ilk marta (1996-yil 7-fevral, “Maʼrifat” gazetasi) chop etilganidan soʻng oradan 23 yil oʻtib Nusratulla Jumaxoʻja eʼtiboriga tushganidan mamnunman. Men bir madaniyatli kishi sifatida muallifga hurmat bilan yozilgan har qanday raddiyani toʻgʻri tushunolaman. Maqolada oʻzaro hurmat, oʻz ilmiga amal qila olish madaniyati ustuvor boʻlgan har bir raddiya biz uchun ijobiy hodisa...

Nusratulla Jumaxoʻja maqolaning kirish qismini “...ayrim mutaxassislar oʻz tadqiqotchisini...” deb boshlagan. Men ilmiy tadqiqotchi emas, metodik amaliyotchi ekanimni eslatmoqchiman. Raddiya maqolam haqida ekan, shu yerda ham, bundan keyingi oʻrinlarda ham bunday umumiy gaplarga hojat yoʻq, bizingcha.

Soʻng domla “...gʻazalning ilmda oʻrganilishi, darsliklardagi yoritilishi haqida... maʼlumot berish lozim edi. Bu — ilmdagi oltin qoida”, deb davom etadi. Muallif urgʻu bergan shu oltin qoidaga oʻzi qay darajada amal qilganini kuzatish maqsadida uning “Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati” gazetasida 1987-yil 27-fevralda chop etilgan “Gʻazal va tahlil” maqolasiga nazar soldik. Maqolada oʻzi taʼkidlagan usul bilan “kirish” boshlash uchramadi. Soʻng “Oʻzbek adabiyoti” (10-sinf, 1999-yil) darsligidagi namuna uchun taqdim etilgan tahlilini kuzatdik... Bu yerda ham tahlil boshida N.Jumaxoʻja “oʻnlab olimlar haddi aʼlosiga yetkazib tadqiq etgan”, deya urgʻu bergan maqolalar haqida bir ogʻiz ham mulohaza berilmagan... U taʼkidlaganidek “...gʻazal ilmi maʼrifatda eng koʻp va chuqur tadqiq etilgan” boʻlsa, nega endi darslikdagi matn hajmi buncha koʻpaytirib (11 bet kichik shrift) berilgan?! Shuncha sharhga nima hojat bor edi?! Shuning oʻrniga tahlil manbalarini havolada keltirib, eng ohorlilaridan iqtiboslar berish mumkin edi-ku...

Biz qilgan gʻazal tahlili maktab oʻqituvchi va oʻquvchilari uchun moʻljallangan. Ularning yoshi, dunyoqarashi va tasavvuri koʻlamidan, koʻp yillik amaliy kuzatishlarimizdan kelib chiqib oʻquvchilarning sezimini qoʻzgʻatish maqsadida shu usulga toʻxtalganmiz. Baʼzan shoir maʼnaviy olamiga yetaklash uchun bolalarda romantik tasavvur va kayfiyatga yoʻl ochish maqsadida tahlilni biroz “joʻnlashtirish”ga toʻgʻri keladi... Shunda tahlilda bayon qilinganidek, “Ana endi tasavvur qiling...”, “Endi biz ham siz bilan bogʻbon oldiga boramiz...”, “Endi biroz “nasriy chekinish” qilaylik. Faraz qiling...” kabi murojaatlar orqali bolalarni gʻazal boʻstoniga oson yetaklash, ularni ushbu asar mazmuniga yaqinlashtirish mumkin, deb oʻylaymiz.

Shu maʼnoda raddiya muallifini taajjublantirgan “halqa-halqa” bilan “zinapoya”ning farqini, “nasriy chekinish” bilan lirik chekinishning farqini chuqur anglaymiz... Afuski, bu tahlil 15 yoshli, endi oʻsmirlik boʻsagʻasiga yetgan bolaga aytilmoqda... Shuning uchun ham **maktab adabiy tahlili** “meʼyoriy” (normativ) tahlil deb ataladi. U ilmiy, akademik yoki publitsistik tahlil emas va bolalarning barchasi ham filolog boʻlib yetishmaydi. Ular ona tili va adabiyot fanidan gʻolib boʻlgan olimpiadachilar ham emas... Metodika-da bolalarga ayrim tafsilotlarni ular tilida, bola fikrlashi va tasavvuriga, nutqiga yaqinlashtirib tushuntirish usuli mavjud.

Tahlildagi “zamonaviylashtirilgan” oʻrinlar ana shunday oʻquvchi qalbiga “yaqinlashuv” mahsul. Domlaning umri ilm olamida oʻtayotgani bois buni toʻgʻri ilmiy talqin maʼnosida qabul qilgan koʻrinadi... Bu bolalar filologiya yoʻnalishidagi oliy oʻquv yurti talabalari emas. Endi maqoladagi soʻfiyona sharhlarining koʻpligiga kelsak, ularning barchasini oʻquvchilarga yetkazish majburiy emas, fan oʻqituvchisi tushunib yetishiga bogʻliq. Tahlil, asosan, ona tili va adabiyot fani oʻqituvchilariga tajriba uchun metodik ishlanma sifatida tayyorlangan. Uni qay darajada anglab sinf auditoriyasiga olib kirish ustozning malaka va mahoratiga bogʻliq. Bu maqola filologiya yoʻnalishidagi talabalar uchun ham, filolog ilmiy tadqiqotchilar uchun ham emas.

Maqola adabiyot muallimlari oʻrtasida oʻzaro tajriba almashish niyatida taklif qilingan xususiy xarakterdagi metodik tajribaviy tavsiya. Shuning uchun ham bu gazeta metodik ishlanmalarining tajriba minbari hisoblanadi... N.Jumaxoʻja tahlilni qatʼiy ilmiy tavsiya sifatida qabul qilib, raddiyada “juda chuqur” tahlil qilishga uringan.

Maqola “...usluban juda murakkab”

Maqola adabiyot muallimlari oʻrtasida oʻzaro tajriba almashish niyatida taklif qilingan xususiy xarakterdagi metodik tajribaviy tavsiya. Shuning uchun ham bu gazeta metodik ishlanmalarining tajriba minbari hisoblanadi... N.Jumaxoʻja tahlilni qatʼiy ilmiy tavsiya sifatida qabul qilib, raddiyada “juda chuqur” tahlil qilishga uringan.

boshlanganligining boisi 1-, 4-xatboshilardagi fikrlar oʻqituvchiga ilmiy-metodik tavsiya tariqasida berilganligidir. Umuman olganda, bu maqola, avvalo, oʻqituvchilar uchun... Uni tushunib sintezlash oʻqituvchining qobiliyatiga bogʻliq. Istasa, uni mutlaqo rad etishi, dunyoqarashiga, shoirni anglab yetish layoqatiga asoslanib, oʻzining tahlil variantini oʻquvchilarga taqdim etishi mumkin...

Domla yana “agar u ilohiy jamol boʻlsa, sochini halqa-halqa qilishga ham, zinapoya qilishga ham hech bir ehtiyoj yoʻq”. Bular bari moddiyat unsurlari...”, deb eʼtiroz bildiribdi.

“Chin” va “shikan” (“halqa-halqa”, “zanjirsimon”) shoirming badiiy istioraviy topilmasi. Sochning “chin” va “shikan”ligi bilan “koʻngillarni...” mazmun-mundariyasi oʻrtasidagi bogʻliqlikni 15 yoshli bolaga joʻn qilib tushuntirishning bundan boshqa sodda usuli yoʻq. Shuningdek, “togʻ oʻyuvchi”, “tomchining dengizga singilishi”, “jonni baham koʻrish”, “tanni yuvish va kafanlash”, “firoq togʻi sinovi” kabi izohlarni ilmiy talqinda emas, bola tasavvuriga mos shartli tashbeh ekanini tushunish kerak... Bu gʻazal mazmuniga oʻquvchini “olib kirish” maqsadida qoʻllangan oddiy metodik usul, xolos.

Muallif shaxsiga bepisandlik va hurmatsizlik ufurib turgan raddiyaning barkamol avlodga oʻrnak boʻladigan bayon usulida bitilmaganidan afsusdamiz.

Raddiya madaniyatini unutdikmi?

N.Jumaxoʻjaning “Qaro koʻzum” gʻazalini oʻrganish haqida” sarlavhali maqolasiga raddiya

Raddiya muallifi maqolaning koʻp oʻrinlarida “*mantiqqa toʻgʻri kelmaydi*”, deya eʼtiroz bildirgan...

Birinchidan, bu ilmiy tahlil emas. Ikkinchidan, bu badiiy asar. Unda obrazlilik, istioraviy, ramziy ifodalar sabab mantiq buzilishi aniq va tabiiy ham.

Badiiy asarni ilm, qatʼiy mantiq qolipiga solib, undan real mazmun izlash, bizingcha, notoʻgʻri.

Badiiy asar hissiyot va tuygʻularga, ilm esa dalil va mantiqqa suyanadi. Demak, ular orasida keskin farq bor... Badiiy asar tahlilidan faqat ilm qonun-qoidalarini, mantiqni izlayveradigan bulhavaslar mudom hissiyot va tuygʻular sezimini dalil va mantiq ilmi bilan tenglashtiraveradi.

Navoiy davrida kalom ilmi va tasavvuf falsafasi taʼsirida yozilgan asarlarni hadeb ilm qolipiga, realistik tahlil metodologiyasiga yopishib olib, undan faqat moddiyat izlab talqin qilish bolani shoir maʼnaviy dunyosidan olislashtirishdan oʻzga narsa emas. Bu — aniq tajriba...

Muallifning filologiya fanlari doktori Ismatilla Abdullayevdek ilmiy darajasi yuqori, yoshi ulugʻ ustozga nisbatan oʻta keskin va qoʻpol yoʻsindagi bayon usulida

koʻz yumish umumtaʼlim maʼrifiy jarayoniga salbiy taʼsir qilishi va sayoz talqinlar yanada koʻpayishiga asos boʻlishi mumkin”, deb yozar ekan, goʻyo Navoiyni oʻrganish, tushunishga intiluvchilar saviyasini nazorat qilib borish “inspeksiyasi”-dek qatʼiy hukm chiqaradi. Bizningcha, shoir adabiy merosi haqida har bir kitobxon oʻz imkonni darajasida fikrini aytishga, qarashlarini erkin ifodalashga, ideal ilmiy sharhga daʼvogar boʻlmagan holda matbuotda oʻz metodik tajribalarini olib chiqishga qonuniy va huquqiy jihatdan haqli.

Munaqqid biror maqola yuzasidan munosabat bildirishdan avval, muallif bilan bogʻlanib oʻzini oʻylantirgan mavhum boʻlmagan, noaniq holatlarga oydinlik kiritishi madaniyat belgisi, yetuk olimlikka xos fazilat. **Maqolada esa insoniylik chegarasidan chiqmaslik, oʻzganing shaxsiyatiga daxl qilmaslik oʻzini axloqiy toʻkisman, deb oʻylaydigan kishi uchun gʻoyat zarur.** Aks holda, oʻzining mulomala uslubidan-da ogʻirroq javobga duch kelishi muqarrar... **Matbuot munaqqidning oʻz “saviyasi”ni muxlislarga, talabalarga namoyon etish “minbari” emas.** Shuning uchun ham raddiyaga javoban raddiya bildirishga zarurat sezdik...

“Muallimlarimiz shoir asarlariga mahalliy muhitdan kelib chiqib yondashmaydilar... gʻazal qahramonlarini zamonaviylashtirib yuboradi. Islom mintaqasida yoshlarning oshkora uchrashib yurishi... odob meʼyoriga zid edi” singari eʼtirozlarni bildirar ekan, munaqqid, avvalo, biz yuzorida taʼkidlagan “bola tili” va tasavvuriga yaqinlashtirish usulini hamda sharhimizdagi: “*Faraz qiling...Navoiy davri. Sharqona tarbiya topgan ayol*”. U oʻz oshiqilari oldiga ketmoqda... **Aniq ishonch bilan aytish mumkinki, sharqona tarbiya topgan iboli ayol oʻz muhabbatini hech qachon oshkora bayon qilmaydi**” kabi mulohazalarimizni ham yodda tutmogiʻ zarur edi. Mana shular haqida oʻylarkan kishida oʻzi domlaning tahlildan koʻzlagan asosiy maqsadi nima ekan, degan haqli savol tugʻiladi. Bu ideal tahlilga daʼvogarlikmi? Muallif shaxsiga hurmatsizlik ufurib turgan bunday talqindan qanday xulosaga kelish mumkin?!

Munaqqid maqola muallifini (yaʼni meni) 5 oʻrinda “U”, 15 oʻrinda “O. Mavlonov”, bir joyda hatto “voiz” deya bepisandlik bilan qalqama olgan. Raddiya uslubiy jihatdan samimiy va begʻaraz boʻlsa, munaqqid domla, shorih, tahlilchi, muallim, tadqiqotchi, oʻqituvchi, muallif, sharhlovchi, boringki, talqinchi singari soʻzlardan foydalanib, oʻz madaniy saviyasining komilligini ifodalari edi.

Matnda “*Bu falsafami safsata*”, “*bu qanday toʻqima*”, “*har ehtimolga qarshi*”, “*ehiyoti shart*”, “*oʻz muhofazasi uchun*” kabi shubhalar, “*ortiqcha tafsilotlar toʻqilgan*” kabi luqmalar shunday boʻpki, bularni qanday qilib zamonaviy matbuot

raddiyasi tarkibida qoʻllash mumkinligi bizni oʻylantiradi.

U “...oʻlim falsafasini oʻqituvchilar va ular orqali endigina voyaga yetayotgan... yoshlarga qanday tushuntirish mumkin? Hayotga chanqoq yoshlarni hayotsevarlik ruhida tarbiyalash afzalmi yoki oʻlimsevarlik ruhida tarbiyalash afzalmi?” deb eʼtiroz bildirar ekan, “*Bunday fikrlarni tigari suruvchi muallimning ...nuqul jan-nat va doʻzax haqida safsata sochuvchi voizdan nima farqi bor?*” deya raddiyaga tantanavor tus beradi.

Navoiy asarlarida oʻlimga munosabatning oʻzi bir dissertatsiyaga arzigulik mavzu... Shoir dunyoqarashi haqida gap borar ekan, Navoiy foni dunyoga qattiq koʻngil bermagani, oʻlimni rizolik bilan qabul qilishga har dam shay boʻlgani, bu holat fanodan kechib boqiy oʻzlikni topish, “man araf” — oʻzlikni tanish jarayoni, suratdan maʼnoga koʻchish, juz(qism)ning kull(buton)ga qoʻshilishi maʼnolarida kelishidir.

Oʻrni kelganda bu jarayonni oʻquvchilarga oz-ozdan boʻlsa-da, roʻy-rost aytmaslik, vaqti kelib “Lison ut-tayr” yoki “Masnaviy maʼnaviy” kabi shu yoʻnalishdagi asarlarni toʻgʻri anglamaslikka olib boradi. Masalan, oʻzimiz ustozlarimiz vaqti-zamonida Navoiy dunyoqarashi haqidagi barcha fikrlarni tugal aytmagani tushunib yetdik-ku... Yana shu anʼanani takrorlashning nima keragi bor?! Yaxshisi — meʼyorida aytish. Yana “...hatto darslik mualliflari ham...”, “8-sinf darsligida “*Qora koʻzum*” gʻazali tahlilini juda murakkab bergan... unda gʻayritilmiy va chalkash fikr-mulohazalar koʻp”, deya keskin tanqid qiladi N.Jumaxoʻja. Bizningcha esa, 8-sinf darsligidagi tahlil 10-sinf kitobidagi (1999-yil) tahlildan ming marta sodda, bolaning ruhiyatiga yaqin usulda bayon etilgani bilan tahsinga loyiq.

Gʻazalda Navoiy qoʻllagan harfiy sanʼatlar borasidagi gaplar juda ham qiziq. Goʻyoki u “Satrilar silsilasidagi sehr” (1996), “Oʻzbek adabiyoti” (10-sinf, 1999) kitobidan oʻzlashtirib olingan. Bunchalar biqiz fikrlash... Biz oʻqigan davrdagi (1983) va undan 10 yil oldin va 10 yil keyin oʻqigan talabalar yuz foiz tasdiqlaydilar, bunday mulohazalarni ilk bora fors tili fani oʻqituvchimiz L.Zohidov hamda oʻzbek adabiyoti tarixi fani oʻqituvchimiz Abdullayevdan Navoiyning “Jon”imdagi “jim” ikki “dol” ingga fido” deb boshlanuvchi ruboiyini sharhlaganlarida eshitganmiz. Domlaning dogmatik xulosasi boʻyi-

Oʻrni kelganda bu jarayonni oʻquvchilarga oz-ozdan boʻlsa-da, roʻy-rost aytmaslik, vaqti kelib “Lison ut-tayr” yoki “Masnaviy maʼnaviy” kabi shu yoʻnalishdagi asarlarni toʻgʻri anglamaslikka olib boradi. Masalan, oʻzimiz ustozlarimiz vaqti-zamonida Navoiy dunyoqarashi haqidagi barcha fikrlarni tugal aytmagani tushunib yetdik-ku...



cha esa bu fikrni undan boshqa hech kim bilmaydi... Bu qanday qarash? Ilmiymi, badiiyi? Bu falsafami yo safsata? Shunday dogmatik xulosalarni oʻqir ekanmiz, bu ideal tahlilga daʼvogarlik borasidagi yulduzlik xastaligimikan degan shubhalar xayolda charx ura boshladi.

Biz endi yosh emasmiz. Oʻrtaga dunyodagi barcha aziz narsalarni qoʻyib soʻz beramanki, men domlaning 1987-yil 27-fevraldagi maqolasidan soʻng hech qaysi chiqishlarini oʻqimaslikka oʻz-oʻzimga soʻz berganman... Gazetani olar ekanman, eng avvalo, uning muallifini koʻraman. Men suygʻan, ixlos koʻygan olim, metodist yoki adabiyotshunos boʻlsa oʻqiyman, boʻlmasa yoʻq... Men odatda ilm sabab kamtar boʻlib qolgan insonlarni yoqtiram. Shu bois oʻqish borasida ham oʻz qatʼiy qarashlarim bor. Ilm odamni kamtarlikka, samimiylikka, latiflikka, shirinoʻzlikka, koʻngilchanlikka, oqkoʻngillikka, poklikka, imon-eʼtiqodga boshlaydi... Shu maʼnoda oʻzim ixlos koʻygan, hurmat qiladigan, unga oʻxshashga intiladigan ustozlarim koʻp... Ulardan biri Najmiddin Komilovdir.

Domlaning “Satrilar silsilasidagi sehr” kitobi nashrdan chiqishidan ikki yil avval “8-sinfda “Qaro koʻzumʻ” gʻazalini oʻrganish” nomli maqolam “Maktabda Navoiy

ijodini tasavvufga bogʻlab oʻrgatish” nomli metodik tavsiyanomam tarkibida uch nafar olim nazaridan oʻtgan, hattoki unga kichik taqriz ham yozib boʻlingan edi... Keyinchalik (1998) “Til va adabiyot taʼlimi” jurnalining 4-sonida “Yana “Qora koʻzumʻ” gʻazalini oʻrganish tajribasidan” nomli maqolam ham chop etilgan. Buni ham ustoz N.Komilov oʻzi tahririyatga olib borib bergan. Xullas, bizdagi mavjud qoʻlyozma dalillar munaqqidning koʻp eʼtirozlari notoʻgʻri va nooʻrin ekanini isbotlaydi.

N.Jumaxoʻjaning “koʻz” haqidagi mulohazalarimizga munosabati ham ajoyib. Gʻalati mantiq kelib chiqadi. Goʻyo hamma faqat u kabi fikrlashi zarur va bunga majbur... Tushuning, oʻz fikrimni erkin bayon etishga huquqiy jihatdan yuz foiz haqliman. Siz aytayotgan “isteʼdodli, noyob qobiliyatli” odamlar Oʻzbekiston yoki dunyo aholisining qanchasini tashkil etadi? Demak, umumiy xulosam oʻzim uchun toʻgʻri... Aql shohidki, muxlis siz tahlildan nimani koʻzlayotganingizni angolmaydi...

U “Oʻzlarida adashadilar, oʻquvchilarni ham adashtiradilar”, deb yozadi. Avvalo, adashishdan va adashirishdan har kimni Xudoning oʻzi asrasin. Garchi Navoiy asarlari islom maʼrifati, ilmi kalom qarashlaridan kelib chiqib yozilgan boʻlsa ham, biz bu yoʻsinda sharhloymaymiz. Har bir shohning oʻz egalari bor, bu bizing haqimiz emas. Bizning burchimiz imkon qadar bolalarni shoirming soʻfiyona qarashlariga yaqinlashtirish, asarlari qatidagi tasavvufiy timsollarni anglash, tushunish va izohlay olishga oʻrgatishdan iborat. Eng kami “Lison ut-tayr” yoʻnalishidagi asarlarini oʻqib, uqa olsin. Adabiyot-tasavvufiy

qarashlar xususida boshlangʻich nazariy tushunchalarga ega boʻlsin. Men 36 yil davomida “*adabiyot ilmini izdan chiqarib yuborish*” uchun emas, uni sharqona oʻzanlariga solish, Sharq adabiy merosini oʻrganishda uni ichidan nurlantirgan tajalli nazariyasiga asoslanib sharhlashga erishish yoʻlida xizmat qildim... Shu yillar davomida 9 nafar oʻquvchim ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi boʻlib yetishdi, 2 nafari davlat granti asosida oʻqidi. Yana bir oʻquvchim sheʼr ilmidan saboq olib, shu yili Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori boʻldi.

Metodik yoʻsindagi tavsiyani ilmiy tahlil qilib matbuotda joy band etgandan koʻra sharhdagi “boʻyi-yu sochi teng qora koʻz” yor emas, Navroʻzdagi tengkulik timsoli ekanini yoki ot oyogʻiga xino bogʻlash udumi “Qadim xalqlardan qolgan yodgorliklar” kitobining qaysi sahifasida ifodalangani yoki “ter” timsoli tufayli Sharq adabiyotida qaysi obraz yuzaga kelgani, rindona gʻazal atamasiga qaysi adabiyotdan olingani izohlanmaganiga eʼtiroz bildirilganida, ularni soʻzsiz qabul qildim. Shunda raddiyaga ham hojat qolmasdi. Ming afsuski, bunday boʻlmadi.

Tahlildagi it obraziga ham eʼtiroz bildirilgan. Men yana ham maqola hajmini hisobga olib u yerda muxtasargina sharhlaganman... Baxtni qarangki, “Devonaning ishini Xudo oʻnglabdi” deb shu kungi maqolaning yonida (2018-yil 27-yanvar, “Maʼrifat gazetasi”) Manzar Abdullayevning “Asʼhobi kahf” iti” maqolasi berilibdi. Yoʻqsa, Sharq mumtoz adabiyotida it obrazi haqidagi 20 sahifalik kuzatishlarim bor edi. Aynan Navoiy asarlarida it timsolining oʻzi bir olimga dissertatsiya boʻlgulik mavzu...

Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” asarida yosh fasillarini toʻrtga boʻlganidek, biz ham dastlab “Qaro koʻzumʻ” gʻazali tahlilini bolalik (11—13), oʻsmirlik (14—16), balogʻat (17—19), oliy taʼlim uchun, ilmiy (akademik), sof tasavvufiy hamda kalomiy tahlillarini yaratish yoʻlida ish boshlab, dastlabki toʻrt auditoriyaga xoslangan shakllarini yuzaga keltirishga uringan edik. Yana bashariy yorga nisbatan dunyoviy-majoziy, ilohiy yorga nisbatan soʻfiyona-botiniy, otaning oʻgʻilga mehri maʼnosida orifona tahlillarini yaratish yoʻlida ham izlanishlar olib borganmiz. Ulardan ikkitasi matbuot yuzini koʻrdi, xolos. Qolganlari qoʻlyozma holda saqlanib turibdi.

Raddiyani yakunlar ekanmiz, oʻquvchimiz orqali material qoʻlyozmasi bundan 24 yil avval domlaning ishonchasiga yetkazilganida nega munosabat bildirimagan hayratlanarli. Uch olimning nazaridan oʻtgan tahlilga nega aynan shuncha yildan soʻng (kamiga ustozimiz N.Komilov vafot etgach) fikr bildirish niyati tugʻildi? Nega munaqqid tahliliy plyuralizmga qarshi chiqmoqda?

Muallif shaxsiga bepisandlik va hurmatsizlik ufurib turgan raddiyaning barkamol avlodga oʻrnak boʻladigan bayon usulida bitilmaganidan afsusdamiz. Bu yoshi ulugʻ, odobi kulliyotdan saboq beradigan, irfoni inson bayoni emas. Kitoblarda “Izzayi muslim harom”, deyilgan. Ilm kishisini bu qadar past koʻrib munosabatda boʻlmoq axloqli kishiga xos emas.

Oqiljon MAVLONOV, Oʻzbekiston tumanidagi 16-maktabning ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi

Fikr, mulohaza, taklif

Huquqshunoslik tarixini o'rganish ehtiyoji

O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning o'ziga xos modelini yaratishga harakat qilinyapti. Jamiyatning fan va ta'limga nisbatan talablari oshib borayotganini hisobga olsak, har jihatdan bilimli kadrlarni tayyorlash bugun oliy ta'lim muassasalari oldida turgan muhim vazifadir. Ayni damda o'qitish texnologiyalarining yangilanayotgani, ta'lim va ilmiy muassasalarning tashkiliy hamda iqtisodiy sharoitlari tez sur'atda o'zgarayotganini tan olish joiz. Shubhasiz, bu o'rinda oliy o'quv yurti jamoalarining hozirgi zamon pedagogikasidagi eng samarali yutuqlardan unumli foydalanayotganini ta'kidlash kerak.

Lekin bularning hammasi ham bilimli, tarbiyali, har jihatdan mukammal soha vakilini tayyorlashga xizmat qilayotgani yo'q. Oliy o'quv yurtini tamomlagan mutaxassis o'zi tanlagan sohaning tub mohiyatini anglamayapti. Shu kasbni egallab odamlarga qanday xizmat qilish kerakligini bilmaydi yoki sohaning buyuk namoyandalari uni qay tariqa va nima uchun yuksaklikka ko'targanini tushunmaydi. Bularning asl sababini esa zamonaviy ta'lim qanchalik ilg'or ahamiyat kasb etayotgan bo'lmasin, pedagogikaga chinakam tarbiya, aslyat yetishmayotganligida deb baholadik.

Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri", "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida" kabi asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. Ta'lim — insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya — fazilatlarini, ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalari va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy 1481-1482-yillari yozgan "Vaqfiya" asarida ilmparvarlik va insonparvarlik g'oyalari asosida shoirning mudarrislar va talabalar moddiy ta'minotiga g'amxo'rlik qilganligini ko'ramiz. Xususan, mazkur asarda mudarrislariga har yili ikki yuz oltindan maosh belgilangan, har oyda ikki qopdan bug'doy non uchun hamda otining yemi uchun ikki qop arpa berilgani qayd etilgan. Navoiy talabalarni ikki halqa(guruh)ga bo'lib, bir guruhda ular sonini 11 nafardan oshirmagan ham teran bilim olishga mo'ljallangan tadbir bo'lib, agar har bir guruhda 20 va undan ortiq talaba bo'lsa, mudarris ularning har biriga yetarlicha e'tibor berolmay qoladi deb hisoblangan. U talabalarni qobiliyati va yaxshi o'qishiga qarab uch toifaga bo'lgani va uch daraja maosh (stipendiya) belgilangani ham diqqatga sazovordir.

Mutafakkirlarimizni jahon tan oladi, biroq...

Ulug' mutafakkirlarimizdan buyuk meros qolganini hammamiz yaxshi bilamiz. Lekin ularni o'rganish masalasi esa...

Oliy o'quv yurti va o'rta maktabdagi pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab va mas'uliyatli so-

hasi hisoblanadi. Lekin bugun biz qaysi oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayonida ulug' allomalarimizning asarlaridan foydalanilayapti deb ayta olamiz?! Vaholanki, ko'plab chet el oliy o'quv yurtlarida bugun Abu Ali Ibn Sino, Forobiy, Imom Buxoriy asarlari maxsus fan sifatida o'qitilyapti.

Fikrimizni huquqiy ta'lim beradigan o'quv ta'lim muassasalari misolida davom ettirmoqchimiz. Huquqshunos talaba pedagogik faoliyatga maxsus o'qitilmaydi. Ammo huquqshunos o'qituvchi faqat o'z fanini bilishi yetarli emas, u yoki bu darajada pedagogik mahorat, pedagogik jarayonning turli shakl va uslublari, kasbiy psixologiya va etikani ham yaxshi tushunmogi lozim. Bu dargohni tamomlagan huquqshunosni xalq orasiga yo'llaymiz. Demak, u muhoqot madaniyatini chuqur bilishi zarur. Shu bilan birga xulq-atvori munosib bo'lishi kerak. Xo'sh, agark, oliy o'quv yurtlarida bu jihatlariga e'tibor qaratilmas ekan, unda bu tarbiyani bo'lajak kadrlar qayerdan ham oladi?

Bugun "Ingliz huquqi", "ingliz madaniyati", "ingliz tili" tushunchalari hayotimizga tezlik bilan kirib kelyapti. Huquqshunoslikda xorijiy amaliyot "berilib" o'rganilyapti. Hozir ko'plab oliy ta'lim muassasalari kabi bizning universitetda ham pedagogikaning zamonaviy uslublarga, asosan, chet el tajribasiga tayanilmoqda. Albatta, xorijning eng ilg'or tajribasini o'rganishning ko'pgina afzal jihatlarini inkor etib bo'lmaydi. Lekin qanchalab fiqhshunos allomalarimiz, adolatpesha va soztad-bir qozikalonlarning tajribasi tarixiy qo'lyozmalar orqali bizga meros qolgan. Qo'shni Qozog'istonda akademik S.Zimanov boshchiligidagi "O'tmish qozoq huquq dunyosi" nomli 10 jildlik nashring huquqshunos olimlar tomonidan tayyorlangani biz uchun bir turtki bo'lib xizmat qilmaydimi?! Vaholanki, qadimiy yurtimizdagi huquqiy yodgorliklarni o'rganish, aslida ularning ilmini zamonaviy amaliyotda qo'llashimiz kerak emasmi?! Biz ixlos qo'ygan o'sha xorij uslubi ham Sharq olimlarining boy

merosini o'rganish asnosida shu darajaga yetmaganmidi?! Mutafakkirlarimiz tajribasini jahon tan olib turgan bir paytda biz ularni o'rganmasligimiz naqadar achinarli.

Ular izidan shu yergacha keldik...

Yuz yillik an'analarga ega universitetimiz binosining har burchagiga bir-bir qadam bosaman. Biror joyda ulug' allomalarini, ularni bosgan yo'lni anglatuvchi surat yoki boshqacha tasviri ko'rmayman. Zero, bu dargohdan necha-necha huquq ilmi bilimdonlari chiqqan. Biz ularning izidan yurib shu yergacha keldik. Avlodlarimiz ilmiy merosni o'zi xohish bildirib o'rganishi uchun biz ularning ko'z o'ngiga ulug'lar siymosini yaratishimiz kerak emasmi? Talabalar ulug'larning fiqh ilmiga, huquqshunoslikka qo'shgan hissasini tan olib, ular ruhini sezib, shu bilan ma'naviyatini to'yintirib tahsil olsa, qanday soz bo'lardi. Yaqinda Sankt-Peterburg universiteti yuridik fakultetida o'tkazilgan xalqaro Martens ilmiy anjumanida qatnashdim. Ikki yilda bir marotaba bu universitetda dunyo miqyosida xalqaro huquq ilmi bilimdonlari yig'ilib, Fyodor Martens qoldirgan boy merosni tahlil etib, huquqdagi eng so'nggi tendensiyalarni muhokama etadilar. Bu tadbir menda katta taassurot qoldirdi. Shunda o'yladim: huquq ilmidagi X.Sulaymonova, Sh.O'razayev, A.A'zamxo'jayev kabi yetuk namoyandalari qoldirgan ilmiy merosni nahotki ommalashtirilmasak?!

Shu asosda eng ilg'or huquqiy amaliyotning ortidan quvyapmiz-u, tarbiyani unutilib qo'yayapmiz, chog'i. Negaki, yuridik oliy o'quv yurti boshqa oliy ta'lim muassasalaridan (masalan, texnika yo'nalisidagi OTMdan) o'zining ko'p jihatlarini bilan ajralib turadi. Bu dargohni bitirgan talabalar sudya, prokuror, tergovchi, advokat sifatida kelgusida ko'plab insonlarning taqdirini adolatli va to'g'ri hal qilishi lozim. Shu sabab ham ular yuksak insoniy fazilatlariga ega bo'lishi juda muhim ekanini unutmamlik kerak. Talabalarga ta'lim berish jarayonida kasbiy ehtiyojlarni inobatga olgan holda yo'naltirish, ularning jahon va milliy adabiyot namunalarni bilishi (ayniqsa, o'zbek tili va xorijiy tillar bo'yicha olib boriladigan mashg'ulotlarda ularidan foydalanish), madaniyat va san'at asarlari bilan tanishish imkoniyatidan ham unumli foydalanish zarur. Bu borada talabalarni teatr, muzeylarga

olib borishni tizimli tashkil qilish samara bergan bo'lardi. Bu ayni paytda Prezidentimiz ilgari surayotgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etishda ham muhim sanaladi.

So'zni qo'llash mahorati

Ko'p vaqtlar davomida oliy o'quv yurtida nazariy va amaliy bilimlar qay darajada, o'quv rejasida ularning nisbati qanday bo'lishi kerak, bunday bilimlarni talabalarga qanday usul va vositalar orqali yetkazish lozim, degan bahslar bo'lib kelgan.

Mashhur chex pedagogi Y.Komenskiy insonning har qanday bilimni yaxshi o'zlashtirishga qobiliyati bor, faqatgina to'g'ri usulni tanlay bilish lozim deb hisoblagan. Hozirgi zamon ta'lim tizimida, jumladan, yuridik ta'limda turli usullar qo'llaniladi. Xususan, ta'limning eng muhim an'anaviy usullaridan biri bu so'z — tushuntirish usuli hisoblanib, talabaning bilim olishida o'qituvchining nutqi asosiy manba sifatida ulkan kuchga ega. Albatta, talaba ham o'z o'mida, amaliy mashg'ulotlarda, ma'ruza va chiqishlarida, imtihonlarda ilmiy rahbari bilan kurs yoki bitiruv-malakaviy ishini yozishda birinchi navbatda so'zdan foydalanadi va uning nutqi shakllanishida bular katta o'rinni egallaydi. Talabaning fanlarni o'zlashtirishi, uni tushunishi, eslab qolishi, so'rovlarda foydalanishi, ayniqsa, keyinchalik hayotda qo'llay olishida o'qitishning ko'rgazmali usullari ham muhimdir. O'qituvchining mashg'ulot davomida tegishli ko'rgazmali jadval, sxema va hatto doskada marker bilan ko'rsatgan yozuvi, kriminalistika bo'yicha o'quv kabinetidagi anjomlar talaba tomonidan yaxshi qabul qilinadi. Talabaning o'qituvchisi rahbarligida seminar va amaliy mashg'ulotlarda, ayniqsa, ma'ruzalari, tegishli mavzu bo'yicha vazifa va topshiriqlarni yechishi, bahs va munozaralarda faol ishtirok etish huquqiy voqelik va hodisalarni o'zlashtirishda "aqli hujum", ya'ni aqliy faoliyat ruhi bilan boyitilgan evristik usul hisoblanadi. Bunday usul ikki shaklda amalga oshiriladi. Birinchidan, talaba uyga berilgan topshiriq va vazifani amaliy mashg'ulotlarda o'zining javoblarini taqdim etgan holda tahlil qilishi, ikkinchidan, o'qituvchi tomonidan ilgari surilgan muammoli masalalarni talabaning mustaqil ravishda amaliy mashg'ulotlarda o'z ma'ruza va referatlarini orqali muhokama qilishi bilan ajralib turadi. Talabaning o'z o'qituvchisi rahbarligida amaliy mashg'ulotlarda ma'ruza yoki referat, kurs va malakaviy ishlarini tayyorlashga yo'naltirilgan ta'dqiqot usulini ham nazarda tutadi. Bunda yozma ishini yozishda uning rejasini tuzish, materiallar to'plash, uni tizimlashtirish jarayoni talabaning dunyoqarashini kengaytiradi, mantiqiy fikrlashga undaydi.

Omonulla MUHAMMADJONOV,
yuridik fanlar doktori, professor

Huquqshunos talaba pedagogik faoliyatga maxsus o'qitilmaydi. Ammo huquqshunos o'qituvchi faqat o'z fanini bilishi yetarli emas, u yoki bu darajada pedagogik mahorat, pedagogik jarayonning turli shakl va uslublari, kasbiy psixologiya va etikani ham yaxshi tushunmogi lozim.

Yurakka bexato kirib borish uchun samimiy va olovli soʻz ayta olish talab etiladi.

Mangu soʻlmas qizgʻaldoqlar

Sheʼrda ruh mujassam. Uning ham joni bor, nazarimda. Inson hayqirigʻi uygʻotilmagan qalbni sheʼr besasgina uygʻotishi mumkin. Koʻngillardan topolmagan huzurni sheʼrdan topish mumkin. Koʻngil balki sheʼrdan oziqlanar. Shoir ham rassom. U rang-barang soʻzlar orqali koʻngil manzarasini chizishga qodir. Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Azim Suyun, Xurshid Davron ana shunday mohir soʻz musavvirlaridir. Ular qatorida otashqalb shoir Yoʻldosh Eshbek ham bor. Uning ijodida hech kimga oʻxshamagan oʻzgacha ohang, ruhiy tahlilning teranligi, poetik fikr tiniqligi yaqqol sezilib turadi.

Shoirming 2016-yili nashr etilgan “Qizgʻaldoqlar ochildi” toʻplamini oʻqib ana shunday ruhiy goʻzallikdan bahramand boʻlamiz. Shoir sheʼrlariga parday yengil soʻzlar bilan toshday zalvorli maʼnolarni singdira olgan. Sheʼrlarda xalq ogʻzaki ijodiga xos jihatlar koʻproq eʼtiborimizni tortadi. Muallifning xalq ogʻzaki ijodiga mehri baland. Shu bois uning sheʼrlari ham shu ildizlardan suv ichganini his etish mumkin. Aksariyat sheʼrlari folklorga xos yengil vaznga, ohangdorlikka ega. Bu jihat toʻplamning birinchi — “Mangu masofa” faslidagi birinchi sheʼrdan boshlab koʻzga tashlanadi:

*Ostonangga dilimning
Torlarini boyladim.
Men bir dunyo suluvdan
Sen suluvni sayladim.*

Shoirm koʻproq milliy maʼnaviyatimizning asosini oʻzida mujassam etgan “Alpomish” dostoni ilhomlantirgan. “Boychibor” sarlavhali sheʼrda shoirming baxshi bobosi — Gala bobodan “Alpomish” dostonini eshitib ulgʻaygani va bolalarga xos begʻubor tasavvurlari bayon etiladi. Uning Boychiborga mehri boʻlakcha. Otga rahmi keladi, tasalli beradi:

*Mana, kishnab yubording-ku!
Hech qolmagin oh urib,
Yana uchgin yulduzlarga
qanotingni yoz endi!
Men turibman tishim bilan
mixlaringni sugʻurib,
Sen turibsan, uchmoqqa shay,
uchmoq senga soz endi!*

Dostonlar shoirm shunchaki ilhomlantirib qolmaydi, balki ularga izdoshlik hissini ham tuydiradi. Qahramonlardan madad soʻraydi:

*Yuragimda avlodlar choʻgʻi,
Tomirimda yangrar meros ishq.
Qoʻltigʻimga kirib, Goʻroʻgʻli,
Qonlarimda uygʻon, Alpomish!*

“Qoʻsh hayda”, “Omon yor”, “Dam shu damdir...” deb boshlanuvchi sheʼrlari ham xalq ogʻzaki ijodi elementlariga boy.

Toʻplamda qadim ohanglar bilan bir-



ga zamonaviy sheʼriyatga xos vazn va qofiyaga boʻysunmaydigan, qisqa hajmli sheʼrlar ham bor. Ijodkorning isteʼdod darajasi inson qalbi iqlimlarini nechogʻlik tadqiq eta olish mahorati bilan oʻlchanadi. Yurakka bexato kirib borish uchun samimiy va olovli soʻz ayta olish talab etiladi va oʻsha olov soʻz yetib borgan joyni kuydirishi kerak. Soʻzning maʼno oʻqi yurak nishoniga qadalihi lozim. Shu jihatdan olib qarasak, Yoʻldosh Eshbek koʻnglida ana shunday soʻz oʻqi yotadigandek, agar uni aytmasa, koʻngliga qadali bezovta qiladigandek:

*Soʻz — uzilmagan oʻq,
Ichimda yotar.
Yoʻq,
U mening oʻzimni otar...
...U hech kimni oʻldirmaydi.
Yoʻq
Men omon qolaman—
Otiladi oʻq!*

Sheʼrda vazn, qofiyaga amal qilinmagan, shiddatli ilhom qanday kelgan boʻlsa, shundayligicha oq sheʼr tarzida qogʻozga tushirilgan. Oq sheʼrga xos xususiyat shundaki, ijodkor ilhomni baʼzan mantiq elaklaridan elashga ham ulgurmaydi. Lekin maʼno qamrovi keng boʻladi. Chinakam sheʼr oʻqib boʻlingach tugamaydi, balki boshlanadi. Sheʼrxondan uni oʻz tasavvurlari bilan toʻldira olish, kengaytira olish talab etiladi. Shoir tugatgan nuqtasidan keng hissiyot olami boshlanadi. Sheʼrxon mushohada qilib, soʻz zamirida yotgan qirralarni kashf etadi. Yoʻldosh Eshbekning quyidagi ikki satrdan iborat sheʼri ham shunday tahlilni talab qiladi:

*Yer
Osmonning qalbidagi sheʼr,
Ufq labida aytilaman der.*

Hayotdan olingan har qanday sheʼrda hayot bor, deyishadi. Yoʻldosh Eshbek toʻplamda shunday hayotiy sheʼrlar bilan sheʼrxonni oʻz saviyasiga moslashtira oladigan poeziya dunyosini yaratolgan. Shoirming kechagi kundan uzilmagan qadami bugun ham shaxdam va oʻz izida rangin qizgʻaldoqlar ochib bormoqda. Bu qizgʻaldoqlar mangu soʻlmagay, toʻkilmagay.

Ishqqa qorilgan sheʼriyat

Ishq — juda koʻhna mavzu. Biror shoir yoʻqki, ishq mavzusini qalamga olmagan boʻlsa. Badiiy adabiyotning ibtidosidan boshlangan bu mavzuni bugun har bir ijodkor oʻz ovozida imkon qadar kuylamogʻda. Ana shunday ruhiy oʻriqishlarsiz qabul qilinadigan, mavhum tushunchalardan xoli, samimiy, pokiza, joʻshqin muhabbatni taniqli shoira Guljamol Asqarova sheʼrlarida ham koʻrish mumkin. Uning butun ijodiga asos qilib olingan poetik tamoyil — ishq. Har bir satrida shoira yurak urishi aniq sezilib turadi.

Guljamol Asqarova sheʼrlarini oʻqirakmiz, shunday savol tugʻiladi: shu nozik qalbga olam-olam otashinlik qanday sigʻdi ekan? Har soʻziga choʻgʻ singdirilgan satrlarni qayerdan oldi ekan? Bunga shunday javob berish mumkin — tabiat uning zuvalasini ishqqa qorigan.

Shoira tuygʻular ifodasiga hech qanday sunʼiy boʻyoq bermaydi. Lirik xarakter ham yaratmaydi. Uslubining oʻzi lirika. Bu lirikada bir ayolga xos sadoqat, mehr, javobsiz muhabbat dardi oʻzaro uygʻunlashadi. Oʻzbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov: “Asl sheʼriyat shunchaki chechanlik emas, shunchaki chiroyli tashbehlar-u marjon misol tizilgan sadafdek soʻzlar emas. U birinchi navbatda oshiq qalbning dardmand qoʻshigʻi, his tugʻyoni”, deya taʼkidlagan edi. Guljamol Asqarova sheʼriyati xuddi ana shu oshiq qalbning dardidan, hislar tugʻyonidan sizib chiqqan sheʼriyat.

Shoira lirik qahramoni garchi oʻz muhabbatiga loyiq javob oʻlolmasa-da, garchi koʻp ozor tortsa-da, yorini zarra-cha ham yomonlamaydi:

*Meni kuzatasan yomgʻirlar bilan,
Iloy oʻftoblar kuzatsin seni.
Ketyapman dardingni tuzata olmay,
Endi duolarim tuzatsin seni...*

Koʻz “yomgʻirlar”i bilan yigʻlatib ketgan boʻlsa-da, hayoting yorishsin, deya duo qilish — bu ulkan olijanoblik. Bedardlik dardini tuzata olmagan boʻlsa-da, endi duolarida umid qiladi. Lekin zarra-cha ham uni ayblamaydi:

*Sen sira kuyinma, bori ayb menda,
Yillar yuragingga boshladi meni...*

Bevafo boʻlsa-da, shoira koʻnglida uygʻotilgan ishq uchun undan minnatdor. Undan kelgan ozorlardan koʻra, ishq koʻproq koʻnglini poklaganini oʻzi uchun baxt deb biladi. Chunki shu ishq sabab oʻzligini anglaganini tushunib yetadi:



*Seni topib
oʻzimni topdim,
Garchi bagʻrim,
yuragim yaro.
Axir, umrim
yigʻlayotibdi
Yoʻqotishlar,
topishlar aro.*

Ishq insonni har koʻyga solishi mumkin. Aslida, haqiqiy ishq visol uchunmas. “Visol — muhabbatning goʻzal oʻlimi”, degan misra bor edi Iqbol

Mirzoning bir sheʼrida. Bu asosli haqiqat haqida adabiyotshunos Qozoqboy Yoʻldosh shunday deydi: “Sevgida visol emas, sevgining oʻzi marra boʻlishi kerak. Sevgi oshiq uchun sababi yoʻq, oqibati esa mutlaqo muhim boʻlmagan muqaddas hodisadir”. Guljamol Asqarova sheʼrlaridagi poetik xulosa ham bu fikrlarning isboti oʻlaroq yangraydi:

*Eskirgan tuygʻuning
qismati ham shu,
Shart emas bu holga
yoqa yirtmoqlik.
Muhabbatning sharti jim
termulmoqdir,
Muhabbatning sharti
emas yetmoqlik.*

Shoira sheʼrlaridagi joʻshqinlik va soddalik har qanday sheʼrxonni maftun etadi, maʼnaviy zavq beroladi. Baʼzi misralarida maʼno ostida maʼno boʻlsa-da, asosiy mazmunni xiralashtirmaydi. Nafaqat mazmun, balki shaki ham sheʼrlarining jozibasini taʼminlaydi. Xoh qisqa, xoh uzun satrlar boʻlmasin, barchasi musiqiylik bilan taʼminlangan. Bunda qofiyalarning oʻrni alohida. Adabiyotshunos olim Bahodir Karim shoira sheʼrlarining qofiya jihatiga toʻxtalib, shunday fikr bildiradi: “Bir qarashda qofiyalar jarangi hammaga tanishdek tuyuladi. Ammo choʻng dard va original ifodaviy mazmun shu qofiyalar ham Guljamol tomonidan birinchi marta qoʻllanayotgandek taassurot qoldiradi”.

Guljamol Asqarova koʻnglida-gi pok ishq sheʼrga singib ketgan. Bu shunday buyuk ishqki, uning oldida jon hech narsa emas. Munajotida ham buni bayon etadi:

*Mendan yuz oʻgirma,
hech xush onim yoʻq,
Kuydirmoq istama,
xonumonim yoʻq,
Ishqing ketar boʻlsa,
abasman, abas,
Jonim ketar boʻlsa,
pushaymonim yoʻq!*

Sevgisiz yashash shoira nazdida oʻlim: “Sevmayman, sevmayman, sevmayman dedim, Dimogʻimga keldi oʻlim nafasi”. Muhabbat zamirida maʼnaviyat yotsa, u abadiyatga daxldor boʻladi. Guljamol Asqarova satrlaridagi koʻrkam badiiyat shundan darak beradi.

Nurjahon QAYUMBERDIYEVA,
ToshDOʻTAU talabasi

Tabiat va biz

Suvni tejash — tabiatni asrashning asosiy omili

Ekologik muammolar iskanjasida qolayotgan insoniyatni bir savol qiynamoqda: avlodlarga qanday sayyora qoldiramiz? Kelajakka xavf solayotgan global ekologik muammolardan biri bu, shubhasiz, suv tanqisligidir. BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozir dunyo aholisining 2 milliardga yaqini shu muammo ta'sirida yashamoqda, 2030-yilga borib, suv resurslari tanqisligining 40 foizga yetishi, chuchuk suv yetishmovchiligi sababli katta qiyinchiliklar kelib chiqishi mumkin. Muammo bundan-da keskinlashib ketmasligi uchun endilikda suv xo'jaligida mavjud resurslardan oqilona foydalanish, tizimga tejamkor texnologiyalarni tatbiq etish zarurati yuzaga kelmoqda. Zero, suv resurslarini muhofaza qilish boshqa tabiat obyektlaridan oqilona foydalanish va ularning ekologik-huquqiy muhofazasini ham ta'minlaydi.

Ta'lim tizimi oldida ham tahsil oluvchilarning suvni tejash bo'yicha ekologik madaniyatini shakllantirish, ularga suvni tejovchi texnologiyalar va usullar haqida keng ma'lumot berish vazifasi turibdi. Chunki tabiat ne'matlarini kelgusi avlodga bezavol yetkazishga barcha birdek mas'ul. Ushbu maqola orqali suv tanqisligi masalasining dolzarbligi, tomchilatib sug'orish tizimining afzalligi ko'rsatiladi, o'quvchi yoshlarda suvni te-

Orol dengizidan uchgan tuz sababli yozda ham oppoq qordek ko'rpa-ga o'ranib yotgan kengliklar, dashtlar bolalik xotiralarimda qolgan.

Bugungi kunda Orol muammosiga ham jiddiy e'tibor qaratilib, uning salbiy ta'sirini yumshatish choralari ko'rilmog'da. Jumladan, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham bu o'z ak-

Bolalarni suvni tejashga qanday o'rgatish mumkin?

Farzandlarimiz suvni tejash borasida hukumat darajasida olib borilayotgan ishlarning ahamiyatini anglashi uchun ularga, avvalo, suvning naqadar aziz ne'mat ekanini tushuntirish kerak. Tabiatdagi muvozanatni saqlashda suv qanday o'rin tutayotganini turli misollar orqali ifodalash mumkin. Tabiatshunoslik, kimyo, biologiya darslarida suvning mo'jizaviy xususiyatlari haqida ham so'z yuritish bo'ladi. Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" asarida suvning xususiyatlarini yaxshilaydigan bir necha usullarni bayon qilgan. Shuningdek, yaponiyalik olim Masaru Emotoning suv bo'yicha olib borgan qiziqarli tadqiqotlari asqotadi. Olimning izlanishlari tabiatda biror qor parchasida tasvir bir-birini takrorlamasligi, ifloslangan suvdan hosil bo'lgan qor parchalarida chiroyli simmetrik shakllar hosil bo'lmasligi, suv musiqa va so'zlardan ta'sirlanishi, shunga mos shakllarda

ular birdan sergak tortadi, keyin kuzatuvchan bo'ladi.

Suv tabiiy manba sifatida biologik tozalanish xususiyatiga ega. U quyosh nuri va organizmlar faoliyati ta'sirida tozalanadi. 24 soatda 50 foiz bakteriyadan tozalansa, 96 soatda ifloslovchi moddalarning 0,5 foizi qoladi, ammo juda ifloslangan suvning tozalanishi qiyin ke chadi. Suvning tabiiy tozalanish jarayonini ham kuzatish, natijalarni qayd etib borish mumkin. Qaysi holatlarda suvning tabiiy tozalanishi qiyin kechishini kuzatgan yoshlar atrof-muhit muhofazasiga ko'proq javobgarlikni his etishadi.


Maktab sahnasiga olib chiqiluvchi sahna ko'rinishida ham suv muammosiga ko'proq e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Yer yuzidagi aholining qancha qismi toza ichimlik suviga muhtoj, qanchasi sanitariya holati talab darajasiga javob bermaydigan suvdan foydalanishga majbur bo'layotgani haqidagi lavha namoyish etilsa, dunyoning qaysidir burchaklarida odamlar ichimlik suvi uchun navbatda turgani sahnalashtirilsa, ekologik madaniyatni shakllantirish yo'nalishidagi ishlarning samaradorligi oshadi. Zotan, jon boshiga kundalik sarflanadigan suvning miqdori turlicha: rivojlangan mamlakatlarda ko'pincha 550 — 600, taraqqiy etmagan davlatlarda 60 — 150 litr atrofida, qishloq joylarda 15 — 25 (40) litrni tashkil qiladi.

Ona tili saboqlarida "Suv — zar" mavzusida insho yozish topshirig'ining berilishi ham suv tabiatda keng tarqalgan bo'lishiga qaramasdan, suv zaxiralarning uch foizigina iste'molga yaroqli ekanini anglashga, uning bebaholigini ko'rsatishga xizmat qiladi. Shu bois ota-bobolarimiz suvni toza saqlashga, undan oqilona foydalanishga alohida e'tibor bergan. Qadimda ariq va anhorlardagi oqar suv iste'mol qilingan. Hozirgi kunda ariq va kanallar chiqindilarga to'la. Mavzuni turli nuqtayi nazardan yoritish bo'yicha tavsiyalar berilishi lozim. Matematika darslarida har safar tish yuvganda 5 litr suv ishlatilsa, bu kuniga ikki marta yuz bersa, bir hafta(oy, yil)da qancha suv sarf bo'ladi, agar bu 95 foizga qisqarsa, bir hafta(oy, yil)da qancha obihayot tejaladi kabi masalalar berilishi mumkin. Yoki jo'mrakda tomib turgan suv tomchisi necha daqiqada takanni to'ldirishi, bu bir yilda qancha miqdorni tashkil etishi, kuniga qancha ulushdan to'g'ri kelishini hisoblash bo'yicha misol ham qiziqarli bo'ladi.

Egallangan bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llash uchun o'quvchilarga yana bir qator topshiriqlar beriladi. Shulardan biri "Bog'larni sug'orish"dir. Ko'pchilik hovlilarda bog' mavjud. Yozning issiq kunlari uni vaqti-vaqti bilan sug'orib turish kerak. Bunda sepiladigan suv jo'mrakdagi toza ichimlik suvi bo'lishi shart emas. Meva-sabzavotlarni yuvishdan qolgan suvni ishlatish ham mumkin. Yana bir topshiriqda bog' yoki tomorqadagi biror daraxt yoki o'simlik odatda foydalaniladigan suv miqdori bilan kunduzi sug'oriladi. Xuddi shunday daraxt yoki o'simlik ildiziga kechqurun kamroq suv quyiladi. Eng qizig'i, har ikkala o'simlik baravar rivojlanadi, lekin suv tejaladi!

(Davomi bor.)

Sanobar JUMANOVA,
"Ma'rifat" muxbiri



jash ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Materiallardan o'quv jarayoni, ekologiya va tabiatshunoslik yo'nalishidagi to'garaklar, yozgi malakaviy amaliyot davrida foydalanish mumkin. Qolaversa, qaynoq faslning jazirama kunlari ekin maydonlari, shaxsiy tomorqa, o'quv muassasalari atrofidagi bog' va ekinlarni sug'orishda suv sarfini kamaytirishda har bir insonga qo'l keladi.

Muammo bizga ham begona emas

Suv muammosi haqida gap ketganda Orol dengizi fojiasi bamisoli ogohlikka chorlovchi bongdir. Qoraqalpog'iston Respublikasida tug'ilib voyaga yetganim sababli muammoni bor bo'y-basti bilan tasavvur qilaman. Suv yetishmagan uchun qovjiragan ekinlar, aravalarida necha kilometrdan ichimlik suvi tashib yurgan yosh-yalanglar, yildan yilga o'zanini toraytirayotgan daryo,

sini topgan. Orolbo'yi hududini rivojlantirishga doir Davlat dasturi qabul qilingan. Unga asosan, hududda umumiy qiymati 8 trillion 422 milliard so'mga teng bo'lgan ko'plab loyihalar amalga oshiriladi.

Xo'sh, mamlakatimizda suv sarfi ko'proq qaysi sohalar ulushiga to'g'ri keladi? Uni kamaytirish uchun qanday choralari ko'rilmog'da?

Bugungi kunda ishlatilayotgan obihayotning 88 foizi qishloq xo'jaligi ulushiga to'g'ri keladi, maishiy xizmat sohasida 8, energetika sohasida 1,5, sanoatda 2 va baliqchilik tarmog'ida 0,5 foiz suvdan foydalaniladi. Mutaxassislarining ma'lumotiga ko'ra, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining 98 foizi sug'orma dehqonchilik hissasiga to'g'ri kelar ekan. Shu bois suvni tejaydigan texnologiyalar(tomchilatib, yomg'irlatib, egatga plyonka to'shab, egiluvchan quvurlar yordamida sug'orish)ni keng joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

muzlashini isbotlab bergan. Suv qanchalik toza, sof bo'lsa, tabiatda harakatlansa, uning "tiriklik ko'rsatkichi" ham oshib boraveradi. Bunday misol yordamida yoshlarda suvga alohida munosabat va qiziqish shakllantiriladi.

Jo'mrakni ochiq qoldirmang, tish yuvayotganda suvni oqizib qo'ymang, stakandan foydalaning, deyish yoki turli tadbirlardagi nasihatgo'yliklar doim ham o'zini oqlayvermaydi. Bugungi ta'lim-tarbiya tizimi ta'sirchan va innovatsion usullarni talab etadi. Masalan, suvni tejash mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkaziladigan kuni ta'lim muassasasi hovlisida shlangda suvni oqizib qo'yish va o'quvchilarning unga munosabatini kuzatish, tasvirga olish mumkin. Ko'p hollarda o'quvchilar suvni o'chirish mas'uliyatini bo'yniga olmaydi, loqayd va beparvo qarab o'tib ketadi. Sho'xroqlari suv sepib o'ynaydi. Tadbir avvalida o'quvchilarga o'zlarining harakatlari namoyish etib berilsa

Yadgarova Nargiza Faxritdinovnaning 14.00.18 — Psixiatriya va narkologiya ixtisosligi bo'yicha "Pozitiv affektivlik terapevtik rezistent depressiyaning klinik prediktorlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tib.31.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 29-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 100047, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent ko'chasi, 51-uy.
Tel/faks: (71) 268-17-44; e-mail: info@tipme.uz

Raxmatullayeva Nasibaxon Islambayevnaning 14.00.13 — Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha "Jadallashuvchi qon-tomir leykoensefalopatiyasi (Binsvanger kasalligi): patogenetik mexanizmlar, tashxislash va davolash algoritmlarini takomillashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tib.31.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 29-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 100047, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent ko'chasi, 51-uy.
Tel/faks: (71) 268-17-44; e-mail: info@tipme.uz

Alinazarova Mahfuza Alisherovnaning 01.04.10 — Yarimo'tkazgichlar fizikasi ixtisosligi bo'yicha "Yarimo'tkazgichli quyosh elementlarining fotoelektrik parametrlariga volt-ampere xarakteristikasi noideallik koeffitsiyentining ta'siri" mavzusidagi (fizika-matematika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti, Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31.01.2019.FM/T.03.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 3-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy.
TDTuning Elektronika va avtomatika fakulteti, 232-xona.
Tel/faks: (71) 246-46-00; e-mail: tstu_info@edu.uz

Valiyev Sirojiddin Abdirasulovichning 01.04.10 — Yarimo'tkazgichlar fizikasi ixtisosligi bo'yicha "Segirtilgi yuqori, parametrlari haroratga turg'un va radiatsiyaga chidamli termorezistorlarni yaratish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti, Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31.01.2019.FM/T.03.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 2-avgust kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy.
TDTuning Elektronika va avtomatika fakulteti, 232-xona.
Tel/faks: (71) 246-46-00; e-mail: tstu_info@edu.uz

Alijanov Donyorbek Dilshodovichning 01.04.10 — Yarimo'tkazgichlar fizikasi ixtisosligi bo'yicha "Optoelektron axborot-o'chov tizimlari uchun AFK qabul qilgich ishlab chiqish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti, Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31.01.2019.FM/T.03.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 3-avgust kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy.
TDTuning Elektronika va avtomatika fakulteti, 232-xona.
Tel/faks: (71) 246-46-00; e-mail: tstu_info@edu.uz

Xakimova Nilufar Karimqulovnaning 01.04.10 — Yarimo'tkazgichlar fizikasi ixtisosligi bo'yicha "Tabiiy yarimo'tkazgichli tolalarning fizik xossalari" mavzusidagi (fizika-matematika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti, Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31.01.2019.FM/T.03.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 2-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy.
TDTuning Elektronika va avtomatika fakulteti, 232-xona.
Tel/faks: (71) 246-46-00; e-mail: tstu_info@edu.uz

Quchqarov Akmaljon Axmadaliyevichning 05.05.06 — Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo'yicha "Energetik maqsadlarda foydalanishga mo'ljallangan quyosh nurlanishini chiziqli mujassamlovchi ko'zguli tizimlarning optik-geometrik parametrlarini asoslash va ishlab chiqish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Fizika-texnika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.05.2018.FM/T.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 7-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 100084, Toshkent shahri, Chingiz Aytmatov ko'chasi, 2-"B" uy.
Fizika-texnika instituti majlislar zali.
Tel/faks: (71) 235-42-91; e-mail: info.fti@uzsci.net


Volinskova Nadejda Vladimirovnaning 02.00.13 — Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Markaziy Qizilqum fosforitlaridan ekstraksiya fosfor kislotasini ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish va takomillashtirish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti va Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.K/T.35.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 25-iyul kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-"A" uy.
Tel/faks (71) 262-56-60, 262-79-90; e-mail: ionxanru@mail.ru

Abduraximov Muzaffar Daminjonovichning 08.00.13 — Menejment ixtisosligi bo'yicha "Strategik menejment usullari asosida milliy arxiv ishini boshqarishni takomillashtirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 9-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 100000, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72, 239-01-49; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Hasanov Tohir Abdurashidovichning 08.00.13 — Menejment ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda xususiy uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 9-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 100000, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72, 239-01-49; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi rus tili, fransuz tili, huquqshunoslik, informatika, texnologiya, chizmachilik fanlaridan oliy va birinchi toifali o'qituvchilarni ishga qabul qilish uchun tanlov e'lon qiladi.



Hujjatlar joriy yilning **25-avgustiga** qadar qabul qilinadi.

Murojaat uchun telefon raqami: **(90) 131-41-12.**

Elektron pochta manzili: **tfidum@xtv.uz**

Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi sinov asosida ixtisoslashtirilgan 5-sinflarga o'quvchilar qabulini e'lon qiladi.

Hujjatlar joriy yilning **1-iyulidan 1-avgustiga** qadar qabul qilinadi.

Murojaat uchun telefon raqami: **(90) 131-41-12.**

Elektron pochta manzili: **tfidum@xtv.uz**



1984-yilda Toshkent qishloq xo'jaligi instituti (hozirgi Toshkent davlat agrar universiteti) tomonidan **Karimov Xaydar Usmanovich** nomiga shu institutning **Agronomiya** fakultetini bitirganlik haqida berilgan, **3893-tartib** raqami bilan ro'yxatga olingan, **IIB-I №300410** sonli mutaxassis **DIPLOMI** yo'qolganligi bois

BEKOR QILINADI.

Muallimning sukuti

(Hikoya)

Yigitni or o'ldirar,
Tuyani sarbon.

(O'zbek xalq maqoli).

Uyga kech soat o'n larga yaqin kirib kelgan Samadov domlaning ikki yuzi, hatto peshonasigacha lavlagidek qizarib ketgan, chap yuzida allaqanday izlar biliniy turardi. Peshvoz chiqqan xotiniga bosh ko'tarib qaramadi ham. Ichkarilarkan, mast kishi kabi to'g'ri yo'lda bir-ikki turtindi.

— Yaxshi keldingizmi, dadasi? — xotini yana qaytarib so'radi erining orqasidan hayron boqib.

— Senga nima? Ishingni qilavermaysanmi?! — dedi Samadov g'udranib.

Xotining ko'ngli og'ridi, biroq sezdimadi. Erining tush payti qo'ng'iroq qilib “Bugun majlis, kechroq boraman!” degani yodiga tushdi. “Majlisda gap eshitgandir-da!” deb o'zicha taxmin qildi. Ovqat suzib kelib o'tirdi, o'ralgan choynak ustini ochdi, to'ng'arilgan piyolani o'ngarib, choy quydi. Shu tobda uxlamay onasini qiyayotgan nabira bobosining kelganini eshitib, yugurgilab chiqdi.

— Menga nima opkeldingiz, bobojon? — dedi bobosini tizzasidan quchoqlab olarkan erkanib. Samadov domlaning battar jini qo'zidi, uch yashar nabirasining do'mboq qo'lhalaridan ushlab nari surdi. So'ng:

— Olmaysanmi buni? — deb o'shqirdi xotiniga qarab. Xotini sal nari-da turgan keliniga ko'z qirini tashladi va nevarasining qo'lidan ohista tutganicha o'ziga tortdi.

— Kel, oppoq qizim mening. Bobongning boshi og'riyapti ekan, ertaga opkeladi. Hozir kirib uxlagin, xo'pmi?

Ko'chadan doim shirinlik ko'tarib keladigan bobosining siltashini kutmagan, shekilli, buvisining gapidan keyin qizaloqning alami kelib yig'lab yubordi. Kelini ikkilanib yaqinlashdi-da:

— Assalomu alaykum, — dedi sekingina. So'ng yig'layotgan qizchasini quchoqlaganicha ildam odimlab ichkariga kirib ketdi.

Shuni kutib turgan xotini dedi:

— Tinchlikmi, dadasi? Nima bo'ldi o'zi? — U shunchalar muloyimlik bilan so'radiki, hatto har qancha g'azabnok kishi ham zunda bor ko'ngilsizliklarini unutib, javob berar edi. Biroq u savolni-da eshitmadi. Domlaning g'azabi so'nadigan emasdi, bu yerda g'urur-or masalasi bor edi. Xontaxtaga suyanib, so'ri chetida omonatgina o'tirarkan, qovog'idan qor yog'ar, tinmay pishilardi. Dasturxonga qaramas, hatto ust-boshini yechishga unamadi ham.

Samadov o'qishni bitirib, o'ydinchuqur jinko'chalar bilan qadrdon qishlog'iga qaytdi. Ota-onasining yolg'iz boquvchisi emasmi, ish izlab eng avval o'zi o'qigan maktabga bordi. Institutni bitirib qaytganini eshitgan direktor darrov ishga qabul qildi. Yigit kishi eplaydi, dedi, katta sinfga rahbar qilib qo'ydi. Bolalar bu yoshda bebosh bo'lishadi, o'zgina qattiq turmasang, yelkangda ot o'ynatishadi. Ikki gap ortiqcha, bittasi oz. Oson bo'lmadi, o'qishga

qiziqishi yo'q o'quvchilar sabab Samadov huda-behudaga asabiylashadigan bo'lib qoldi. Bir safar o'zini tutolmay o'quvchisini bir shapaloq urdi. Mushtdek bola, ustozidan hayiqmay gap qaytarib tursa, nima qilayotganini bilmay qolarkan kishi. Bolaini sudrab xonadan chiqarib yubordi.

— Darsimga boshqa qadamingni bosma, kiritmayman, — dedi qat'iy ohangda. Biroq zum o'tmay qilgan ishdan afsuslandi.

O'zining bolalik paytlarini eslarkan, o'qituvchisidan qo'rqib o'tirishlari, uyga vazifani bajarmay kelganida ustozining haydab yuborgani yodiga tushdi. Biroq o'shanda bir og'iz ham gap qaytarmagan. Darsni qiya ochiq eshik ortida turib tinglagandi. Nega hozirgi bolalar unaqa emas, hurmat-izzat degan narsani bilmaydi? O'qituvchidan hayiqmaydi?.. Domla uzoq o'ylanib qoldi.

Ertasiga o'quvchisi kutganidek onasini boshlab keldi. Onasi direktorning oldiga kirdi.

“Bolamga qo'l ko'taradigan mush-tumzo'r o'qituvchini qo'yman”, — dedi. Direktor Samadovning yonini oldi.

— Domla, nima qilasi-a o'zingizni kuyitib, o'zgina chidasangiz, bu-yil bitiradi, ketadi, shular, — dedi kuyinib. Samadov tilini tishladi, tushundi. O'qituvchini quruli sabr ekan. Indamadi.

Samadov domla o'ttiz-yil maktabda dars berdi. Sog'lig'idan ayrildi, yuragi tez-tez bezovta qiladigan bo'lib qoldi. O'zini ayamadi, kasbiga umrini baxshida qildi. O'quvchilari orasidan bozorchi ham chiqdi, amaldor ham. Shifokorga borganida, “O'quvchingizman, tanid-ingizmi?” desa, ich-ichidan sevinib ketardi. Ko'cha-ko'yda kimdir to'xtab salom bersa, “Ha, o'quvchilarimdan biri bo'lsa kerak-da”, derdi faxrlanib. El orasida hurmat qozondi. O'g'li ham otasiga havas qildi. Izidan bordi, ota kasbini tanladi.

O'tgan yillar davomida mudir, mudir o'rinosari bo'ldi. Shogirdlaridan biri yuqori lavozimga o'tirgach, Samadovni “sog'lig'im ko'tarmaydi”, deganiga qaramay direktor vazifasiga tayinladi. “Meni o'qitgansiz, ustozimsiz”, deb hurmatini joyiga qo'ydi. Samadov yaxshi direktor bo'ldi. Uning davrida oddiy qishloq maktabi ko'zga ko'rindi. Biroq bu uzoq davom etmadi, shogirdi bo'shadi-yu ishlar chappasiga aylandi.

Yaqindagina boshliq bo'lgan “katta” juda qattiqqo'l chiqdi. Plan-plan deydiganlar xilidan ekan. Ikkinchi te-



rim dedi — muallimlar yordamga bordi. Uchinchi terim dedi — o'quvchilar ko'makka shoshildi, lekin viloyat plani hech to'lmadi. Shunda bir siqim paxta qolmagan dalaga “hamma chiqsin” deb buyruq berdi. Direktor Samadovning g'ashi keldi. Chidamadi. “Ikki oydan beri o'qish yo'q, hamma ko'sak terib dalada izg'iydi. Bolalar bilim olishi, o'qish kerak emasmi?”, dedi. Yangi “katta” gapni tushunmaydigan chiqdi. Plan uchun borini beradigan chiqdi.

— Dadasi, ovqatingizmi yemaysizmi? — dedi xotini ikkilanibgina. Biroq ayni damda, mayin eshitilgan bo'lsa-da, Samadovning yana jini otlandi:

— Kirib yotavermaysanmi? Yegim kelsa, yeyman, — dedi jerkib. So'ng yuzini silab qo'yarkan, xo'rsindi. Yuzi emas, yuragi og'riyotgandi. Hammaning oldida yegan tarsakisi yodiga tushib yana qizarib ketdi. Yutindi. Ori keldi. Tanish-bilishlarning yuziga endi qanday qarayman, degan o'y o'tdi. Ko'z oldida bugungi voqea qayta jonlandi...

— ...Nimaga dalaga yubormading o'qituvchilarni? Nimaga o'quvchilarning bormadi? — “Katta”ning yuz-ko'zidan olov sachrab turardi. Zalda yigirma-o'ttiz chog'li kishi o'tirarkan, hammani birma-bir turg'azib savol-javob qilmoqda edi.

— Aziz Akbarovich, ikki oydan beri hamma dalada, o'qish qolib ketayapti, axir, — dedi Samadov yotig'i bilan tushuntirmoqchi bo'lib.

Bu gapni eshitib “katta”ning battar asabi buzildi.

— Muallim termasa, o'quvchi termasa, unda kim teradi paxtani? A-a-a? — og'zidan tupuk sachrardi.

— Aziz Akbarovich, biz... — Samadov nima deyishni bilmay bir zum kalovlandi.

— Nima sen? Nima sen? Hozir senlarni deb boshliqdan qanaqa gap eshitganimni bilasanmi? — “Katta”ning borgan sari g'azabi qaynarkan o'zini tutolmay qoldi.

Bexos kelib tushgan tarsakidan Samadovning ko'z oldi qorong'ilashdi. Gandiraklab ketdi. Shuncha odam oldida “katta”ning bunday qilishini kutmagandi. Yuzini ushladi-yu, biroq bu shapaloq yuragini jarohatlaganini sezmad.

Shu tobda yomon ish qilib qo'ygan kishi kabi boshini egib turardi, xolos.

O'sha damda xonadan shart chiqib ketvorsa bo'lardi-ku, bunday qilolmadi. Bolasi ko'z oldidan o'tdi, endigina ishga kirgan o'g'lining kelajagini o'yladi.

“Katta” qilgan ishdan bir zum afsuslangan esa-da, buni sezdimadi. Tergashda davom etdi.

— Ertagayoq arizangni yoz! Senlar bu yerda yurasanlar “hala huv” qilib, azobini tortadigan — men.

Hamma jim edi. Tarsakidan so'ng yig'ilganlarning dami ichiga tushib ketdi. Samadov qolgan gaplarni eshitmadi. Sekin-asta ta'sir etadigan dori kabi tarsakidan so'ng quloqlari bitib qoldi. Qizarib, bo'zarib turarkan, shuncha odam ichida uyatdan yer yorilsa, kirib ketgudek bir holatda edi.

Yig'ilish qachon tugaganini-yu, qanday tashqariga chiqqanini esolmaydi. O'rinosari bilan xayrlashgani elas-elas yodida. “Shuncha odam oldida...” degan o'y bir zum xayolidan nari ketmas, yuragi siqib borardi. Xotining turib ketganini ham payqamadi. Dam-badam xo'rsinib qo'yarkan, ertaga ko'chaga qay yuz bilan chiqishi haqida o'ylab ezilardi. “Teshik quloq eshitadi, ertaga hamma shu haqida gapiradi”, pichirlab qo'yardi o'ziga o'zi. Xontaxtaga tirsagini tirab boshini qo'ydi. Ko'zlari tinib ketdi. Uh tortdi. Zo'rg'a nafas olarkan, ich-ichidan kelayotgan alam borlig'ini o'z domiga tortayotgan, or-nomus o'tida qovurayotgan edi.

“Nima degan odam bo'ldim? O'ttiz-yil o'qituvchilik qilib-a?” o'ylardi ichida. “Odamlar nima deydi?” Nafasi bo'g'ila boshladi. Hansirardi. Oqish ko'ylagining urinib qolgan yoqasini kattaroq ochdi. So'ng yuragini changal-lagancha so'ridan yiqildi.

Samadov domlaning janozasiga butun qishloq keldi. Hurmat-ehtirom bilan tuproqqa qo'yishdi. Yaxshi odam edi, deyishdi. Odamlar orasida “Kecha majlisda, “katta”lardan biri uribdi. Ishdan haydab yuboribdi. Noinsof, o'qituvchini ham urasanmi? Seni kim o'qitgan o'zi? Seni kim odam qilgan, muallim emasmi? Sadqayi odam ket!” degan gaplar eshitilib turardi.

Raxshona AHMEDOVA



Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari xalqaro turnirda

Shu yilning 29-iyul — 1-avgust kunlari Rossiyaning Sochi shahrida Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilaridan iborat terma jamoalar o'rtasida futbol bo'yicha xalqaro superkubok musobaqasi o'tkazildi.

O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi matbuot xizmatining ma'lum qilishicha, turnir reglamentiga ko'ra, musobaqada 2004-2005-yillarda tug'ilgan futbolchilar o'zaro bellashadi. Musobaqada Jamshid Asadov boshchiligidagi O'zbekiston terma jamoasi ham ishtirok etadi.

Xalqaro superkubok musobaqasida ham yurtlarimizdan tashqari Rossiya, Turkiya hamda Kataloniya o'smirlar terma jamoalari ishtirok etadi.

Ta'til musobaqalari

Marg'ilon shahrida 18—22-iyul kunlari 2005-2006 va 2007-2008-yillarda tug'ilgan bolalar o'rtasida futbol bo'yicha ochiq turnir o'tkazildi.

Unda Navoiy, Namangan, Toshkent va Farg'ona viloyatlari, Toshkent shahri hamda qo'shni Qirg'izistonning O'sh shahridan kelgan jamoalar ishtirok etdi.

Ushbu turnirda 2007-2008-yillarda tug'ilgan bolalar o'rtasida maydon egalari Marg'ilon shahri jamoasi 1-o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, 2005-2006-yillarda tug'ilgan bolalar o'rtasidagi bahslarda bekobodlik yoshlar shohsupaning yuqorisiga ko'tarildi.

Yozning qaynoq kunlari tashkil etilgan musobaqa bolalarning ta'til kunlarini maroqli o'tkazishiga xizmat qildi.

G'olib va sovrindorlarga kubok, diplom va medallar topshirildi.

To'garaklar faoliyati samarali bo'lmoqda

O'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ma'naviy olamini boyitish, kitobga muhabbatini oshirish maqsadida tumanimiz ta'lim muassasalarida qiziqarli to'garak mashg'ulotlari va mazmunli tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

O'quv yili davomida o'tkazilgan "Mumtoz adabiyot" ma'naviy-ma'rifiy tadbirlari, "Ilmdan boshqa najot yo'q" shiori ostida oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, talabalar va o'quvchi-yoshlar o'rtasidagi uchrashuvlar, teatr va kino saroylariga tashriflar, "Teatr—ibratxonadur" mavzusida el suygan san'atkorlar bilan ijodiy uchrashuvlar ta'tilda ham davom ettirildi.

Umumta'lim muassasalarining 5-11-sinf o'quvchilari o'rtasida to'garaklarga qiziqishini o'rganish maqsadida so'rovnomalar o'tkazildi. Uning natijasiga ko'ra maktablarda yangi to'garaklar tashkil etildi. To'garaklarda yoshlarga ta'lim-tarbiya berayotgan pedagoglar ham bir qator ko'rik-tanlovlarga jalb qilindi. "Kitobxon o'qituvchi" tanloviga turli fan o'qituvchilari qamrab olindi. Tanlovning tu-

man bosqichida 1-o'rinni egallagan 262-maktabning musiqa fani o'qituvchisi Muhtaram Ergasheva hamda faol ishtirok etgan boshqa o'qituvchilar XTBning diplom va faxriy yorliqlari bilan taqdirlandi. "Kitobxon maktab" tanlovining Toshkent shahar bosqichida tumandagi 324-maktab jamoasi o'zining kuchli bilimi, serqirra ijodkorligi, salohiyatini namoyish etib 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida "Qodiriy asarlari bilimdoni", "Kitob mening taqdirimda" ko'rik-tanlovlari o'tkazilib, unda o'g'il-qizlarning faol ishtiroki ta'minlanishi, 40-maktabning 9-sinf o'quvchisi, iqtidorli ijodkor qiz Shohista Sobirovaning "Sadoqat kuychisi Zulfiyaxonim" nomli to'plamining chop etilishida ana shu fidoyi o'qituvchilarning mehnati bor.

O'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida 132-maktabda tashkil etilgan "Mutolaa zavqi" debat klubi o'g'il-qizlarning kitobxonlikka qiziqishini oshirayotganini alohida e'tirof etish joiz. Klub a'zolari tanlangan asar yuzasidan dastlab maktab saralash bosqichini o'tkazib, so'ng oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan aka-opalari bilan bellashishga tayyorgarlik ko'radilar. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti va Toshkent kimyo-texnologiya instituti talabalari bilan o'tkazilgan munozara-debatda o'quvchilarning chuqur bilimi, teran fikrlashi, zukoligi bilan ajralib turdi. Kitobxon o'quvchilari maktabimizning yosh pedagoglari bilan ham o'qigan asarlari yuzasidan munozara olib borishadi va bu doimiy an'ana aylangan.

Gulhayo SAMANDAROVA,
Shayxontohur tumanidagi
132-maktab o'qituvchisi



Bilasizmi?

G'aroyib suyuqlik

Yoxud geliyning o'ziga xos xususiyati

Fizikadan ma'lumki, agar jism harorati pasaytirilsa, birozdan so'ng u qattiqlashib, kristall holatga keladi. Bunda sovutish qanday bosimda amalga oshirilishining farqi yo'q. Bu hol barcha moddalar bilan ro'y beradi, faqat birgina "nuqsonli" modda — geliydan tashqari.

Geliy qanday element ekani o'quvchilarga fizika va kimyo fanlaridan yaxshi ma'lum. Bu modda o'zining kritik harorati bo'yicha rekordchi hisoblanadi. Bilamizki, moddalarning eng past — kritik harorati 4,3 K. dan kam emas. Biroq geliy eng past darajada sovutilib, amalda harorat mutlaq nolga yetganda ham suyuqligicha qoladi va uni qattiq shaklda olib bo'lmaydi.

1911-yili shimoliy niderlandiyalik fizik X.Kamerling Onnes boshchiligidagi olimlar guruhi laboratoriya sharoitida past temperaturalarni olish ustida sinov o'tkazdi. Tajriba natijalari amalda absolyut nolga erishib bo'lmasiligini, ammo unga yaqinlashish mumkinligini ko'rsatdi. Biroq hozir 0,0001 K.ga teng temperaturaga erishilgan.

Harorat kamaytirilib, issiqlik bosimi pasaytirilganida molekularlar harakati ular orasidagi o'zaro ta'sir kuchlariga

xalal bermaydigan darajada kuchsizlanadi va tartibli ravishda tizilib, kristall hosil qiladi. Sovutish jarayonini davom ettirish orqali molekularlar harakatidagi barcha energiya tortib olinadi. Va mutlaq past haroratda modda to'g'ri panjarada joylashgan hamda tinchlangan molekularlar ko'rinishida bo'ladi. Boshqacha aytganda, haroratning absolyut noli deb qabul qilingan ($t=1/\beta=-273^\circ\text{C}$) darajada molekularlarning ilgari tanima harakati tamomila to'xtasa-da, harakatning boshqa turlari (aylanma va tebranma) $T=0\text{K}$ da davom etadi.

Odatda, jism suyuq holatda bo'lgan vaqtda atomlar harakatlanadi. Va jism haroratini mutlaq nol darajagacha sovutish orqali uning barcha harakat energiyasi tortib olinadi. Mexanika qonunida ham jismlar harakatini ularidagi barcha kinetik energiyani tortib olgan holda, butunlay to'xtatish darajasigacha muzla-


tib qo'yish mumkinligi aytiladi. Xuddi shunday, molekularlar harakatini ularning energiyasini tortib olish hisobiga to'xtatib qo'yish mumkin. Ammo shu vaqtgacha fanga ma'lum bo'lgan mexanika qoidasiga zid tarzda geliy elementida tortib olib bo'lmaydigan harakat energiyasi mavjud.

Mutlaq nol holatida ham geliyning kristallanishdan "bosh tortishi" fizika qonunlari borasidagi ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. Bu, eng avvalo, atomlar dunyosining fizikaning asosiy poydevori — mexanika qonunlariga bo'ysunmasligini ko'rsatadi. Bu ziddiyat, o'z navbatida, atomlar dunyosi mexanikasi asoslarini qayta ko'rib chiqish zarurati borligiga ishora qiladi.

Eski mexanika katta jismlar dunyosi va past tezlikka to'la haqli. Ammo muhimi, eski mexanikaning bir qator qonunlari o'zgartirishsiz yangi mexanikaga o'tmoqda. Energiya saqlanish qonuni ham shular jumlasidan.

Aslida, nolli energiya barcha moddalarda mavjud bo'lib, nolda tortib olinmaydigan energiyaga ega ekani geliyning o'ziga xos xususiyati hisoblanmaydi. Shunchaki, geliydagi bunday energiya atomlarning to'g'ri kristall panjara hosil qilishiga xalal berishi uchun yetarli.

Geliy kristall holatda bo'lmaydi,



deb yakuniy xulosa chiqarish noto'g'ri. Uni ham kristallash mumkin, faqat buning uchun bosimni deyarli 25 atm.gacha ko'tarish kerak. Shunda geliy qattiq kristalga aylanib, kub qirralari markazlashgan panjara hosil qiladi.

Quyidagi rasimga e'tibor bering. Unda geliy uchun haroratning bosimga bog'liqlik diagrammasi ko'rsatilgan. Grafikdan ma'lumki, geliy qaysi holatda bo'lmasin, uning birovta ham chiziqlari kesishmaydi va shu jihati bilan Mendeleev davriy jadvalidagi boshqa elementlardan ajralib turadi.

Baxshillo OLIMOV,
O'zbekiston pedagogika fanlari
ilmiy-tadqiqot instituti dotsenti



“Yoshlik” da quvnayotgan bolalar


— “O'zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining Bo'stonlik tumanida joylashgan “Yoshlik” bolalar oromgohi 2-navbatda 418 nafar bolani o'z bag'riga oldi, — deydi oromgoh rahbari Shoali Ahmadjonov. — Yozgi ta'til davomida bu so'lim maskanda 1440 nafar bola dam olishi rejalashtirilgan.

2-navbatini boshlagan oromgohda bugun 220 nafar “Mehribonlik uyi” tarbiyalanuvchisi, 10 nafar kam ta'minlangan oilalar farzandlari dam olaytir. Shuni alohida aytishni istardimki, oromgohimizda AQShdan kelgan bolalar ham dam olmoqda. O'zbekiston — AQSh do'stlik jamiyati hamkorligi natijasi o'laroq AQShda yashayotgan vatandoshlarimizning 12 nafar farzandi yozgi ta'tilni tengdoshlari bilan maroqli o'tkazmoqda.

Oromgohda besh muhim tashabbus doirasida shaxmat, shashka, rassomlik, raqs, aviamodel, kompyuter savodxonligi, ingliz tili, “Mohir qo'llar”, “Yosh kitobxon” to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Kutubxona, sport maydonchalari, suzish havzasi, tibbiyot xonasi, zamonaviy oshxona bolalar ixtiyorida.

— Oromgohda bolalarning mazmunli dam olishi uchun ta'lim-tarbiya ishlariga, ayniqsa, kitobxonlik tadbirlariga alohida e'tibor qaratganmiz, — deydi oromgoh direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Ra'no Xoliqova. — Turli mavzudagi badiiy kechalar tashkil etib, taniqli ijodkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda.

Sultonboy DEHQONOV olgan suratlar.



Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. G-729. Tiraj 12112.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-60-55;
kotihiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.



“Ma'rifat” dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Fayoza Avlayeva.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

O'zA yakuni — 22.40 Topshirildi — 00.00

2 3 4 5 6